



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROYEVA FERUZA RUSTAMOVNA

**Ingliz va o`zbek xalq og`zaki ijodida o`xshash
mavzular**

5A120101 – Adabiyotshunoslik (ingliz)
ixtisosligi bo`yicha magistrlik ilmiy darajasini
olish uchun taqdim etilgan

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar: H.O`.Yusupova

BUXORO – 2012

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi.....	3
I BOB. INGLIZ VA O`ZBEK FOLKLORINING JANR XUSUSIYATLARI.....	7
1.1. Ingliz va o`zbek xalq og`zaki ijodi namunalari haqida ma`lumot.....	7
1.2. Ingliz va o`zbek folklori janrlari orasidagi umumiylik xususiyatlari.....	14
II BOB. INGLIZ VA O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODIDA O`XSHASH SYUJETLAR.....	22
2.1. Ingliz va o`zbek xalq ertaklarida o`xshash mavzular: o`gay ona, o`gay qiz, qaxramonlik.....	22
2.2. Ingliz va o`zbek xalk og`zaki ijodida raqamlar va ularning ishlatilishidagi o`xshashliklar.....	40
2.3. Dostonlarda o`xshash mavzu va g`oyalar.....	44
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	58

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Jahon adabiyoti rivojida xalq og`zaki ijodining o`ziga xos o`rni bor. U millat madaniyati, tarixi, rivojlanishi xususiyat va bosqichlarini o`zida aks ettirgan meros sifatida keng o`rganadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek “Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma`naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to`laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi”.¹ Millatimiz madaniy merosini o`rganib, uni boshqa davlat madaniyati, adabiy merosi bilan taqqoslash, undagi o`xshashlik va farqlarni ochib berish uchun bugungi kunda biz ana shu imkoniyatlardan keng foydalanib kelmoqdamiz.

Sharqu G`arb adabiy-badiiy munosabatlari, jumladan, adabiy hamkorligi, adabiy ta`sir va aksta`sir, tarjimalar va ularning adabiy hamkorlikdagi roli masalalari ko`p vaqtlardan buyon olimu ijodkorlarni qiziqtirib kelmoqda. Ma`lumki, adabiyotshunoslik sohasidagi muhim vazifalardan biri Sharq va G`arb o`rtasidagi adabiy aloqalarni o`rganishga qaratilgan. G`arb va Sharq mamlakatlari madaniy munosabatlarining rivojlanishi bosqichida esa taqqoslash va xulosalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda zaruriy tadqiqotlardan biri hisoblangan ushbu magistrlik dissertastiyasining dolzarbligi – bir-biridan madaniy, mintaqaviy va hududiy uzoq bo`lgan ikki davlat xalq og`zaki ijodidagi o`xshashlik va bir xillilikni ochib berish orqali millatlar orasida bu kabi o`xshashliklar uchrashini isbotlash hisoblanadi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.133.

O`zbek folklorshunosligida keyingi yillarda boshqa millat va elat folklori bilan qiyosiy mulohazalarni keltirishga bir qadar qiziqish kuchaygani sezilarli samara bermoqda. Millat adabiy rivojlanishi bosqichida yaratilgan qator janrlar – ertaklar, dostonlar, marosim folklori xususiyatlari qiyoslanishi ushbu magistrlik dissertatsiyasining bugungi istiqbol yillarida adabiy hamkorlik aloqalarning o`rnatilishida juda muhim sanaladi.

Xalqlarning milliy mafkurasi va ruhiyatini o`zida poetik aks ettirgan folklor namunalari chuqur g`oyaviyligi va badiiyligi bilan e`tiborga loyiq. Ularda ajdodlarning asrlar osha qilgan orzu-havasi, intilishlari, erk va ozodlik uchun kurashi, bu yo`ldagi alam va iztiroblari, xarakter-xususiyati, o`ziga xos an`analari, ijodkorlik va bunyodkorlik salohiyati milliy mentalitetni ifoda etuvchi muhim belgilar sifatida ko`zga tashlanib turadi. Shu sababli jamiyat rivoji, ma`naviy dunyosini boyitishda etakchi rol o`ynab kelgan folklor namunalarini to`plash, nashr etish, o`rganish, boshqa millat og`zaki ijodi namunalari bilan qiyoslash, o`xshash va farqli tomonlarini keltirish va uni jahon ma`naviyati sahifalariga kiritish bugungi kunning muhim vazifalari sirasiga kiradi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** O`zbek folklori mamlakatimizning bir qator olimlari tomonidan keng o`rganilgan. Bu sohada Hodi Zarifov tomonidan qo`yilgan asos To`ra Mirzaev, Komiljon Imomov, Oxunjon Safarov, M.Jo`raev, D.O`raeva va boshqa qator o`zbek olimlari tomonidan mustahkamlanib kelinmoqda.

Folklorshunosligimizda o`zbek xalq maqollarining ingliz tiliga o`girilishi hamda o`zbek va ingliz maqollarining qiyosiy-tipologik xususiyatlarini o`rganishga bag`ishlangan D.Rahimboeva va G.Karimovalarning nomzodlik tadqiqotlari ham ayricha qimmatga ega. Ularda ilk bor o`zbek folklorining eng ommaviy va mustaqil janri – xalq maqollarining ingliz tiliga tarjima qilinishi tarixi, maqollar tarjimasida adekvatlik xususiyatlari umumlashtirilgan. Maqollarning

paydo bo`lishida xalq hayotiy tajribasining roli o`zbek va ingliz maqollari muqoyasasi hamda shu xalqlar turmush tarziga xos realiyalar mushtarakligi zahirida ilmiy-qiyosiy asosda tahlil qilinib, tipologik xususiyatlari oydinlashtirilib, ma'lum xulosalarga kelingan.¹

Tadqiqotning yangiligi. Ilmiy ishimiz hali tadqiq etilmagan sohalardan biri – ingliz va o`zbek xalq og`zaki ijodida o`xshash mavzularni o`rganadi. Bu mavzu hali chuqur tadqiq etilmagan, bu mavzuning yoritilishi ishimizning asosiy yangiligi hisoblanadi. Ishda ingliz va o`zbek folkloridagi o`xshash syujetlar, o`xshash motivlar tahlili keltiriladi.

Tadqiqotning maqsadi: o`zbek va ingliz folkloridagi epik janrlarning o`xshashlik jihatlarini tahlil qilish, turli millat va makonga xos xalq og`zaki ijodi namunalarida sayyor hamda o`xshash syujetlar tahlilini keltirish.

Tadqiqotning vazifalari. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko`zda tutiladi:

- o`zbek folkloridagi epik (og`zaki nasriy) namunalarni ingliz tilidagi namunalar bilan solishtirish;

- o`zbek va ingliz xalq ertaklarida o`gay ona va o`gay qiz motivlarining berilishini yoritish;

- ingliz va o`zbek xalq og`zaki ijodida o`xshash mavzular – dev, sehrli oyna va boshqa obrazlarning qo`llanilishini taqqoslash;

- ikki millat folklor asarlarining etakchi janrlaridan biri bo`lmish dostonlarda qahramonlik va vatanparvarlik g`oyalarining estetik mohiyatini oydinlashtirish;

- o`zbek va ingliz xalq og`zaki ijodi namunalarida raqamlarlarning qo`llanilishi va uning mohiyatini ochib berish.

¹ Р а х и м б а е в а Д. Сравнительная типология узбекских народных пословиц. Дисс. кан. фил. наук. – Ташкент, 2002.

Tadqiqotning ob’ekti: o`zbek va ingliz xalq ertaklari, dostonlari.

Tadqiqotning predmeti: o`zbek va ingliz xalq og`zaki ijodi namunalarini qiyosiy o`rganish masalasi.

Tadqiqotning metodologik asosi va usullari. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy mafkura, ma`naviyat va madaniy qadriyatlarga doir asarlari, shuningdek, o`zbek milliy va jahon folklorshunosligi hamda folkloriga oid ilmiy asarlar, ayniqsa, V.Jirmunskiy, N.Konrad, H.Zarifov, O.Safarov, Rojer Gauer va boshqalarning folklorshunoslikka oid tadqiqotlari metodologik asos qilib olindi.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, ishda qiyosiy-tipologik metoddan foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertastiyasi kirish, ikki bob, boblar ichida besh fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK FOLKLORINING JANR XUSUSIYATLARI

I.1. Ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari haqida ma'lumot

Og'zaki so'z san'ati «folklor» yoki «xalq og'zaki poetik ijodi» terminlari bilan ifodalanadi. Folklor termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib, u ikki so'zdan iborat – «folk» xalq, «lore» – bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq donishmandligi» demakdir.

Folklor – xalqaro termin. Lekin u turli mamlakatlarda turli ma'noda qo'llaniladi. Masalan, Angliya va AQShda xalq badiiy faoliyatining barcha turi «poetik ijod, muzika, raqs, teatr, tasviriy va amaliy san'at), shuningdek irim-sirim, ishonch-e'tiqod va urf-odatlar shu termin bilan ataladi. Bizning o'zbek fanida esa bu termin konkretlashib bormokda. «Folklor» deganda asosan xalq og'zaki tushuniladi. O'zbek folklorshunosligiga «folklor», “o'zbek folklori» terminlarini birinchi marta H.Zarif kiritdi (1934-35 yy). Folklor janrlarida musiqa, raqs, teatr san'ati elementlari qo'shilib ketadi, shuning uchun folklor sinkretik san'at deyiladi. Ayni paytda folklor asarlari san'atning boshqa turlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Folklorda so'z, kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og'zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo'ldoshi, uning chinakam aks-sadosi bo'lib kelgan, u tarixiy voqealarni xalq ommasining tushunchasi nuqtai nazardan, xalq pozistiyasidan kelib chiqib, badiiy formalarda baholanadi. Xalq ijodini o'rganuvchi, tekshiruvchi fan «folklorshunoslik» deb yuritiladi. Bundan tashqari folklor asarlari bilan bir qancha fanlar shug'ullanadi.

Tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og'zaki ijodida qanday aks etganini o'rganadi. Etnograflarni xalqning urf-odatlari qiziqтира, san'atshunoslar esa folklordagi musiqa, raqs, o'yin va boshqalarni o'rganadilar. Tilshunoslar xalq ijodi

tilining lahja va dialektlari bilan, adabiyotshunoslar folklor asarlarining yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradi.

Folklor asarlari xalq hayotini aks ettiradi, xalqning olam haqidagi tushunchalarini uning didi zavqini ijtimoiy tarixiy siyosiy, falsafiy va badiiy estetik qarashlarni o`zida mujassamlashtiradi.

Folklor – xalqning o`zi haqidagi badiiy xotirasi. Bu xotirani saqlab qolish va kelgusi avlodlarga mukammal holida etkazish, keng ma`noda, an`anaviy folklor va uning hozirgi ahvoli masalasining tarkibiy qismiga taalluqli masala hisoblanadi. Mantiqan olib qaralsa, xalq yashar ekan, uning og`zaki ijodi ham yashaydi. Bu – inkor qilib bo`lmas haqiqat. Ammo xalqning o`zi ham, u yaratgan ijod namunalari ham tarixiy tushuncha. Buning ma`nosi shuki, davrlar o`tishi bilan xalqning moddiy ahvoli, ma`naviy qiyofasi ham o`zgaradi. Shu jihatdan qaralsa, qachonlardir xalqning badiiy dahosi yaratgan ma`naviy boylik – xalq og`zaki ijodi yangi yaratilajak ijod namunalariga o`z o`rnini bo`shatib berishi tabiiy. An`anaviy folklor xalq xotirasidagina saqlanadi. Folklor janrlari faollik darajasi, omma o`rtasida tarqalish miqyosi bilan bir-birlaridan farqlanib turadilar. Ayrim janrlar maxsus tayyorgarlik ko`rgan shaxslar tomonidan ijro etilsa, ayrim janrlar esa keng ommaviy ijro etiladi. Masalan, dostonlar professional baxshilar tomonidan ijro etilsa, ertaklar ham asosan ertakchilar badiyasi orqali ijro qilinadi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Zero, insoniyat ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlaboq alla, qo`shiqlar, afsona, ertak va dostonlarda o`zining Yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og`zaki ijodi o`zining tematik rang- barangligi, yuksak optimistik g`oyalar bilan yo`g`rilganligi, xalq turmushi, urinishi, mehnati yuksak ideallarga maskanligi, xullas xalq hayotining barcha tamonlar bilan uzviy bog`liqligi bilan ham g`oyatda e`tiborlidir.

Biz ba`zida adabiy ijodga tirik asos bo`lgan narsa haqida mushohada qilib ham o`tirmaymiz. Bu esa "so`z" edi. Ibtidoiy zamonda aytilgan, "hikmatli so`z", odamlar uchun "samo"dan kelgan belgi, "ilohiy ishora" sifatida namoyon bo`lgan, qaysiki, bu hikmatlarni xotirada saqlash, uni avloddan avlodga etkazish mas`uliyati paydo bo`lgan. Bu urinishlar dastlab, aytish mumkinki, sinkretik shaklda-inson bilan u ilohiylashtirgan tabiat kuchlari orasidagi bog`liqlikni aks ettiruvchi marosim qo`shiq va raqslarida ifoda etilgan. Asta - sekin insonning mehnat faoliyati davomida, uni tabiat ne`matlaridan foydalanishni o`zlashtirishi davomida hamda hali o`zi ham atrof - muhitda sodir bo`layotgan voqea - hodisalarni to`g`ri anglab etmagan, qnaqadir kuchlarni o`zicha his etib, uni inson qiyofasida tasavvur qilib, ilohiylashtirib, g`ayritabiyy kuchlarga ega bo`lsa-da, ammo o`zining intilishlari, xatti-harakatlari bilan oddiy insonlarga juda o`xshab ketadigan, xudolar haqidagi miflarni yaratganlar. Bu miflar avval toshlarga o`yilgan rasmlarda, idishlarda, matohlarda aks ettirilgan bo`lsa, yozuv paydâ bo`lishi bilan - mixxat shaklida sopolda (tablichkalarda), ierogliflar shaklida papiruslarda, terida, matohlarda birinchi alifbolarning harflari bilan yozilgan. Bunga o`xshash ma`lumotlarni o`zida aks ettiruvchi arxeologik qazilmalardan bizga nafaqat qadimgi tariximiz haqidagi dalillar, balki badiiy adabiyotning eng yuqori xususiyatlariga ega bo`lgan asarlar orqali ham ayon bo`ladi. Aytish mumkinki, aynan shu manbaalar jahon adabiyotining shakllanish jarayoniga o`z hissasini qo`shgan.

Qadimgi tarixning buyuk sivilizatsiyalaridan (eramizdan avvalgi 4 -3 asrlarda)-shumer, assiri, misr, qadimgi yahudiy va forslardan bizgacha etib kelgan buyuk asarlar hozirda insoniyat madaniyatiniã nodir durdonalariga aylangan. Ingliz folklori nemis, kelt va xristian manbalari asosida paydo bo`lgan. Aynan shuning uchun ham faqatgina bir necha an`analar butun Angliya bo`ylab tarqalgan,

boshqalari esa ba'zi hududlargagina tegishli bo'lib qolgan. Buyuk Britaniya bolalar adabiyoti hech qachon shaxsan bolalar adabiyoti bo'lmagan va undan har doim kattalar adabiyoti uchun metaforalar hamda obrazlar vositasining xazinasini sifatida foydalanilgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, tumanli Albionning chuqur tarixi davomida qandaydir g'ayritabiiy odat mavjud: "kattalar" kitobini maroq bilan bolalar o'qiydi, kattalar esa bolalar uchun yozilgan asarlarni ishtiyoq bilan qo'lga oladilar. Shunday "kattalar" bolalar adabiyotiga Angliyaning qadimgi ingliz poemasi "Beovulf" hamda Aylana stol atrofidagi ristarlar haqidagi afsonalar kiradi. Bunda shunday dalilga e'tiborni qaratish joizki, boshqa davlatlar kabi Angliya ham murakkab taroixiy davrlarni boshdan kechirgan. R.Kipling ertagining qahramoni Pak ta'biri bilan aytganda, tumanli Albionaga xudolar kelishgan va ketishgan, ular bilan birgalikda esa turli xalqlarning madaniyatlari ham kelib ketishgan. Qadimgi zamin tarixiga og'ir qismatlar yozilgan: u bir necha bor ishg'ol qilingan hamda talon-taroj etilgan. Avvaliga Stezar boshchiligidagi rimliklar, keyin piktlar hamda skotlar, keyinchalik esa Genget va Gorz boshchiligidagi anglosakslar bostirib kirishgan.¹

IX asrda anglosakslarning etti grafligi (davlati) qirol Egbert boshchiligida birlashtirilib, Angliya degan umumiy nom oldi. Egbertning o'limidan so'ng anglosakslarga butun G'arbiy Evropani larzaga solgan shimol xalqi – normanlar yoki vikinglar bilan kurashishga to'g'ri keldi. Birinchi bo'lib Angliyaga dataliklar bostirib kirib, o'zlarining davlatlarini – Data huquqi viloyatiga asos solishdi. Ularning istilosidan Angliyani Buyuk Alfred xalos qildi (880-893 yillar). Lekin bu g'alaba qisqa muddatli bo'lib, vikinglar Angliya tinchligiga tez-tez rahna solib turadigan bo'lishdi. Faqatgina bir necha yillardan so'ng Data va Angliya qiroli

¹ Арзамасева И.Н., Николаева С.А. Детская литература. – М.: Академия, 2000. – С.156

Knut o`limidan so`ng Angliya datalardan xalos bo`ldi va normandlar sarkardasi jahongir Vilgelm boshchiligidagi qo`shinlar istilosi ostida yashadi. Shu vaqtdan boshlab bir necha asrlar davomida Angliyada fransuz hukmronligi ta`siri davom etib keldi. Yagona anglosakscha qahramonlik poeziyasining namunasi sifatida bizgacha xalq an`analari voqeligini saqlab qolgan "Beovulf" dostoni etib kelgan va bolalar uchun minglab hikoyalar hamda qo`shiqlarda dunyo bo`ylab taralgan. Doston asosida badiiy filmlar, multfilmlar suratga olingan. Dostonning syujeti ikkiga bo`linadi, bosh qahramonning shaxsi va uning qahramonliklarining tasviri: birinchi qismda Beovulf botqoq maxluqi Grendel hamda uning qahrli va badbashara onasi bilan olishishi haqida, ikkinchi qismda – ellik yil davomida davlatni baxtli, farovon boshqargani, keyin olovli ajdar bilan olishib, yaralanib umrini oxirlagani haqida bayon qilinadi. Asarning xalq folklorida kelib chiqqan, deyilishiga ham asos bor. Ko`p tadqiqotchilar dostonning bosh qahramoni ayiqdan kelib chiqqan ertak qahramoniga juda o`xshash, bunga uning ismi guvohlik berishini, chunki qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan Beowulf "asalari bo`risi", ya`ni ayiq degan ma`noni anglatishini dalil deb ko`rsatishadi.

Markaziy epizodlarning birinchi qismida qadimgi Islandiya sagalari bilan parallellik kuzatiladi. Bu narsa asarning juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi qismi esa umumolmon ertaklari bilan hamohangdir. Olimlarning aksari qismi "Beovulf" Angliya xristianlikni qabul qilmasdan oldin yaratilgan desa, hozirgi zamon olimlari asar VIII yoki IX asrlarda xristian kliriklari tomonidan yozilgan, degan fikrni ilgari surishadi. Bunga esa, asarning bir butunligiga monelik qiluvchi, Eski Tavrotdan katta hajmdagi katta hajmdagi parchalarning keltirilishi guvohlik beradi.

"Beovulf" alliterastion she`rlar shaklida yozilgan. Zamonaviy ingliz tilida "Beovulf" bir necha marotaba tarjima qilingan, lekin Uilyam Morris va Archibald Stronglarning tarjimasi eng zo`r, deb tan olingan.

Hech mubolagʻasiz aytish mumkinki, qirol Arturning ristarlari haqidagi afsonalar biror-bir oʻspirinni bafarq qoldirmasa kerak. Qirol Artur haqidagi V asrning oxiri VI asrning boshlaridagi asarlarda eslanib, uni anglosakslarga qarshi kurashning boshida turgan afsonaviy qahramon keltlarning tarixiy dohiysi, deb tilga olinadi. Baʼzi asarlarda Artur qiyofasi biroz oʻzgartirilib, u qirol Uter Pentagorning donishmand oʻgʻli qiyofasida gavdalansa, boshqa bir asarda u ristarlik timsoli qilib tasvirlanadi. Ristarlik anʼanasi Provansda, Janubiy Fransiya paydo boʻlgan va boshqa xalqlarga namuna boʻlib xizmat qilgan. Ristarlik muhitida maʼlum kurtuaz – juda muloyimlik, nazokatlik, xushmuomalalik qoidalari paydo boʻldi – jumladan, ristarlarning oʻta xushmuomala boʻlishi, oʻzining goʻzal xonimini sevishi, oʻzining hamyurtlarini hurmat qilishi va kambagʻal bechoralardan yordamini ayamasi, mard-jasur boʻlishi, muqaddas cherkovga begʻaraz hamda sodiq xizmat qilishi. Mana shu gʻoyalar ristarlik qoʻshiq va dostonlarida oʻz aksini topdi. Ingliz tilida birinchi ristarlik romanlari XIII asrda paydo boʻldi. XIV asrda Shimoliy Angliyada “Arturning oʻlimi” poemasi yaratildi. Qirol Artur haqidagi dostonlarning bir necha xil ishlanmalari boʻlib, ularning barchasida ertak elementlari mavjud. Romanlar syujetida esa Muqaddas Greale haqidagi diniy-mistik motivlar mujassamlashib ketgan. XIV va XV asrlar – ingliz va shotland xalq sheʼriyatining gullab yashnagan davri. Qoʻshiqlar va balladalar – uning eng koʻp tarqalgan shaklidir. Oʻsmirlar kitobxonligi uchun koʻp bitilgan afsonaviy qahramon, serhimmat qaroqchi Robin Gud haqidagi asarlarning paydo boʻlishi bilan bolalar adabiyoti hamda butun bir ingliz adabiyotining rivojlanishida balladalarining ahamiyati katta boʻldi. Balladalarining kelib chiqishi har xil. Bularga ham xristian afsonalari, ham qadimgi epik qoʻshiqlar, ham ristarlik romanlari, hatto antik syujetlar ham kiritilgan. Barcha balladalar bayonida lavhalar asosiy oʻrinni egallaydi. Real voqea-hodisalar sharoitida mavjud boʻlgan haqiqiy tarixiy shaxslar haqida

soʻzlovchi tarixiy balladalar eng katta guruhni tashkil etadi. Ballada qahramonlari turli-tuman boʻlib, ular orasida eng mashhuri serhimmat qaroqchi Robin Gud haqidagisidir. Robin Gud haqidagi balladalar XV - XVI asrlar mobaynida koʻchirib yozilgan va bir butun toʻplamlarga, stikllarga jamlangan. 1521 yilda nashr etilgan Jon Merining lotincha “Buyuk Britaniya tarixi” asarida Robin Gud hamda uning ajoyib yordamchisi Kichik Jon Sheryurak Richard zamonida yashab oʻtganligi haqida maʼlumot bor. Tarixnavisning taʼkidlashicha, Robin Gud yuzlab koʻngilli merganlar toʻdasiga boshliq boʻlib, davlat qoʻshinlari ularga hech teng kela olmas ekan. Qaroqchilar faqat boylarni tunashar, kambagʻal bechoralarni esa himoya himoya qilishar va ayollarga umuman yomonlik qilishmas ekanlar.

Britaniyaga koʻchib oʻtgan german qabilalari orasida yuzaga kelgan ingliz-saks qahramonlik eposining bizgacha etib kelgan yagona namunasi “Beovulf haqida qoʻshiq”dir. Asar VIII – IX asrlar mobaynida yaratilib, X asr boshlarida yozib olingan. Dostonda majusiylar davriga xos qadimgi german afsonalari aks etgan, lekin keyingi vaqtlarda unga xristian diniy qarashlari ham kiritilgan. Doston uch mingdan ortiq misrali boʻlib, ikki qismdan iboratdir.¹

Dostonda Beovulf obrazi mard, odamlarga yordam berish uchun oʻz jonini fido qilishdan ham qaytmaydigan olijanob xalq qahramoni sifatida tasvirlanadi. Doston qabila tuzumi emirilayotgan davrda yaratilgan boʻlib, qator marosimlar tasvirini oʻz ichiga olgan. Qirol bilan pahlavonlar oʻrtasidagi munosabat, oʻlikni kuydirib, koʻmish rasmi shular jumlasidandir.

Xalq badiiy tafakkurida reallik xayolot uygʻunligida fantastikaga yoʻgʻrilib aks etadi. masalan, xalq ertak va dostonlarida goʻzal ayollar obrazlarini koʻzdan kechirganimizda, ularda xalq oʻzining estetik idealinigina emas, balki real hayotiy ayolga xos eng yaxshi fazilatlarni ham umumlashtirib aks ettiradi. Bundan kelib

¹ Қаюмов О.Чет эл адабиёти тарихи.- Тошкент: Ўқитувчи, 1979 – Б.12-13

chiqadigan xulosa shuki, dunyoni abstrakt – idealistik va realistik tasavvur qilishning o`zaro qo`shilib ketishi folklorning yana bir o`ziga xos xususiyatidan darak beradi.

Folklordagi ko`plab janrlarda, chunonchi, maishiy-hayotiy ertaklarda, tarixiy va lirik qo`shiqlarda voqelik ham, qahramon ham real ifodalanadi.

Folklor janrlariga oid ko`plab asarlarda qahramonni badiiy tasvirlash prinsiplari mushtarakdir. Xalq ideal fazilatlar egasi bo`lgan, ommani ergashtira oladigan qahramonnigina tan oladi. Shu bois folklor asarlaridagi qahramonlar beqiyos ideallashtirilgan.

Folklor asarlarida ijobiy qahramon yozma adabiyotdagidek psixologik xarakteristikalarda emas, balki alohida hayotiy lavhalarda o`z xulqi, xatti-harakati va faoliyati bilangina ko`rsatiladi.

Xullas, xalq og`zaki ijodi yozma adabiyotdan farqli o`laroq yuqorida tahlil qilingan qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ammo inson tarbiyasida beqiyos ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligi jihatidan yozma adabiyot bilan mushtaraklik kasb etadi.

I.2. Ingliz va o`zbek folklori janrlari orasidagi umumiylik xususiyatlari

Tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab, inson nafaqat o`zining tirik qolishi uchun kurashgan, balki u o`z qabilasi, urug`ining ham uzoq yashab qolishi tadbirini ko`rgan. Binobarin, alla, ovutmachiq, ertak va topishmoqlar mazmuni avvalo, ongli, kuchli, epchil va chaqqon inson tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan. Kishilarning atrofni o`rab turgan olam haqidagi tasavvuri va u haqidagi yig`ilgan bilimlari, hayotiy tajriba asosidagi dono hikmatlari hamda xulosalari bolalarga o`ziga xos tarzda pand - nasihatlar shaklida, ularga tushunarli vositalarda etkazilgan. Shuning uchun ham turli xalqlarning, hattoki bir - biridan

juda yiroq masofadagi mamlakatlarning xalq og'zaki ijodida ham juda ko'p mushtaraklik mavjud.

Ko'p xalqlarning eng qadimgi adabiy yodgorliklarida, chunonchi, mif va afsonalarida, ertaklarida - bir - biriga o'xshash tomonlar ko'zga yaqqol tashlanadi: bu jihat ko'proq inson va uning Yer yuzidagi ulug', sharaflı vazifasi haqidagi eng yuqori tasavvurlari hisoblangan qahramonlik, aql - zakovat, oliyjanoblik, yaxshilik, go'zallik vasf etilgan madhiyalarda o'z aksini topgan.

Olimlar haqli ravishda, ilmiy tasavvurlarning rivojlanishida, falsafaning, adabiyotning, musavvirlik san'atining, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, teatr san'atlarining paydo bo'lishida, miflar o'ziga xos manbaa bo'lib xizmat qilgan, deb ta'kidlashadi. Eng qadimgi ertaklarda turli xalq marosimlari, an'analari, qabila urf - odatlari tasvirlangan. Yoxud ularning ibtidoiy miflar syujeti (voqeligi) bilan bog'liqligini kuzatish mumkin.

Vaqt o'tishi, kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan, ertak mif va afsonalarni bolalar "o'zlashtirib" olishdi (yoki qachonlardir kattalar o'zlari uchun yaratgan eng sara narsalarni kichkintoylarga taqdim qilishganidek), keyinchalik esa jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorda "Robinzon Kruzo", "Gulliver", "Gargantuya" kabi asarlarni "o'zlashtirib" olishgan.

Folklorshunoslik folklor janrlarini uch adabiy tur doirasida o'rganib keladi. Tur tushunchasi keng ma'noga ega. U o'z ichiga turli janrlarni qamrab oladi. Turlar voqelikni tasvirlash xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Epos voqelikni ob'ektiv holda syujetli-hikoyaviy shaklda aks ettirsa, lirika sub'ektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlarini, ichki kechinmalarini tasvirlaydi; drama esa personajlar nutqi va harakati orqali hayot lavhalarini aks ettiradi.

Professor B.Sarimsoqovning fikricha, adabiyotdagi uch turni folklor asarlariga ham qo'llash mumkin, lekin bu uch adabiy tur doirasiga sig'maydigan, faqat folklorga xos maqol, topishmoq, turli xildagi aytimlar, olqish va qarg'ishlar

alohida tur sifatida ajratib o`rganilmog`i lozim.¹ Shu nuqtai nazardan olim o`zbek folklori janrlari tarkibini quyidagi turlarga ajratadi:

1. Epos: afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, terma, tarixiy qo`shiq, latifa, lof;
2. Lirik: sevgi-muhabbat qo`shiqlari, marosim qo`shiqlari, mehnat qo`shiqlari, laparlar;
3. Drama: og`zaki drama, kulgi hikoya, qo`g`irchoqbozlik, askiya;
4. Maxsus tur: oddiy o`tirish olqishlari, qarg`ish, so`kish, maqol, matal, topishmoq va boshqa xildagi iboralar.

An`anaviylik – xalq ijodi mahsuli. U o`zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Ma`lumki, folklorning dastlabki namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o`sha zamon kishilarining nisbatan qaror topgan urf-odatlar va o`ziga xos dunyoqarashlari aks etgan. Bu hol folklor asarlari shakli, syujeti, obrazlari va motivlarining muayyan barqarorlik kasb etishini ta`minlagan.

Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi – estetik didi bor, folklor hamisha shu xalqona estetik prinsiplarga amal qilib yashaydi. Bu xalq og`zaki ijodi uchun ob`ektiv qonuniyatdir.

Folklor asarlarining og`zaki yaratilishi va og`zaki ijro etilishi ularning o`zgarmas barqaror shakllari – an`analarni yuzaga keltirgan. Masalan, qahramonlik ertak va dostonlari o`rtasida janr e`tibori bilan ma`lum darajada tafovut mavjud bo`lsa ham, badiiy uslub an`anaviy shaklga ega. Folklorning ushbu har ikki janrida ham kompozitsiya an`anaviy boshlama, syujet bayoni va tugallanmadan iborat bo`lib, obrazlar kontrast tarzda ifodalanadi.

An`anaviy dostonlarning qahramonlari ko`pincha g`ayritabiiy tug`ilishlari, cheksiz kuch-qudratga ega ekanliklari bilan ajralib turadilar. Xalq orzu-umidi va

¹ Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг жанрлар состави. //Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик, 1-том. Т.: «Фан», 1988. – Б.64-85.

intilishlarini ifodalovchi bunday ideal qahramonlarga adolat va haqiqatni qaror toptirishda ilohiy homiylar (Hazrati Xizr, qirq chilton, Hazrati Ali, Bobo Qambar va hokazo) ruhiy madadkorlik qiladilar. O'zbek folklorining janrlar tarkibi boy va xilma-xil bo'lib, boshqa xalqlar folklorining janrlar tarkibidan farq qiladi. Shuningdek, unda hamma xalqlar folklorida uchrovchi umumfolklor janrlari – ertak, maqol va topishmoq mavjudligiga qaramay, ruslardagi bilina, skandinavialiklardagi saga, oltoyliklardagi qaylardan farq qiluvchi doston janri bor. Lof va askiya kabilar, asosan o'zbek folkloriga xos janrlardir. Bir necha xalqlardagi bir-biriga o'xshash janrlar ham xarakter xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladilar. Bu xususiyat har bir xalqning tarixi, urf-odati, maishiy turmushi, orzu-umidlari, diniy e'tiqodi, dunyoqarashining ifodasi bo'lgan folklorning o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

O'zbek folklorida mavjud barcha janrlarning majmui tarixan vujudga kelgan yagona badiiy tizim bo'lib, xilma-xil tipdagi asarlarning murakkab va o'ziga xos aloqalari hamda o'zaro ta'siri zahirida bunyod topgan. Janrlar tizimining shakllanishi va mavjudligi folklor taraqqiyotining eng muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

Biz ingliz va o'zbek folklorining janrlar tizimini o'rganar ekanmiz, bu tizim, birinchidan, ulardagi g'oyaviy-badiiy printsiplar umumiyliklarga; ikkinchidan, ularning tarixan taraqqiy etgan o'zaro munosabatlariga; uchinchidan, janrlar tarixiy taqdiridagi umumiylikka bog'liq holda vujudga kelishini tahlil qildik. Tahlilimizda quyidagi umumiyliklarni aniqladik:

1. Ingliz va o'zbek folklori janrlaridagi g'oyaviy-badiiy printsiplar umumiyligi. Har bir janr boshqalaridan farqli xususiyatlarga qaramay, mushtarak etuvchi jihatlarga ham egaki, ana shu mushtaraklik ularni yagona tizimga bo'sundiradi. Bular quyidagilardan iborat:

a) ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidagi barcha janrlar g'oyaviy mohiyatiga ko'ra o'zaro mushtarak bo'lib, ularning hammasida ham xalq hayoti, ruhiyati, orzu-umidlari, shodlik va kulfatlari ifodalangan; har ikki millat folklori xalq ruhiyatini tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

b) folklor janrlar orasidagi o'zaro aloqa ularning voqelikni aks ettirishdagi o'xshashligida ham ko'rinadi. Har bir janr o'z xususiyatidan kelib chiqib hayotning ma'lum bir tomonini ifodalaydi. Masalan, ma'lum bir guruhdagi janrlar xalq tarixini aks ettiradi: doston, tarixiy qo'shiq, rivoyat, afsona kabilar. Lirik qo'shiqlar shaxsiy insoniy kechinmalarni aks ettirsa, maqol va naqlar xalqning axloqiy qarashlari va hayot tajribalaridan olgan saboqlarini ifoda etadi. Bu xususiyatlarni ham har ikki millat og'zaki ijodi namunalarida ko'rish mumkin;

v) folklor janrlari g'oyaviy mushtarakligi, shuningdek, voqelikni ifodalashdagi vazifasining mushtarakligi ularda mavzu, syujet va qahramonlar o'xshashligini, umumiyligini yuzaga keltirgan;

g) folklor janrlari uchun xalq estetik prinstiplari ham umumiydir: soddalik, qisqalik, ixchamlik, syujetlilik, tabiatni poetiklashtirish, qahramonlar axloqiy bahosining aniqligi (ijobiy va salbiy)ni ta'minlagan;

d) xalq og'zaki ijodi janrlari badiiy-tasviriy vositalar tizimining umumiyligi bilan o'zaro aloqadordir: ramzlari, majoziyliigi, sifatlashdagi o'zgachaliklari ham muayyan tizimni tashkil etadi.

2. Janrlarning o'zaro munosabatlariga oid mushtarakliklari. Janrlarning o'zaro munosabatlari g'oyat murakkab jarayon bo'lib, u o'zaro ta'sir, bir-biriga muvofiqlashish va bir-birini boyitish tarzida kechadi.

a) Janrlarning genetik aloqasi. Folklordagi har bir janrning yuzaga kelishida ikkinchi birining manbalik vazifasini o'tashi, genetik aloqaning asosiy xususiyati hisoblanadi. Masalan, o'zbek folklorida doston janriga mansub ayrim namunalarning yuzaga kelishida xalq ertaklari manba bo'lgan, o'z navbatida,

dostonlar zaminida tarixiy qo`shiq janri yuzaga kelgan. Folklorshunoslikdagi fikr-mulohazalarga qaraganda maqol naqlning yakuniy xulosasi sifatida yuzaga kelgan; ingliz dostonlari haqida ham xuddi shu xususiyatni keltirish mumkin, biroq tarixiy qo`shiq ingliz folklorida ko`pincha tarixiy jarayon bilan almashadi.

b) bir janrga mansub asarning, boshqa bir janrdagi asar tarkibida uchrashi. Folklordagi bu xususiyatni maqol janrining doston, ertak yoki qo`shiq tarkibida uchratish mumkinligida ko`rish mumkin. Ba'zi ertaklarda esa qahramonning aql-farosatini sinash sharti sifatida topishmoqlarni uchratish mumkin;

v) bir asarning bir necha janr tarkibida uchrashi. Janrlarning uzoq muddat davomida mavjudligi ularning o`zaro qo`shiluviga yoxud biror asarning biridan ikkinchisiga o`tishiga yo`l ochadi.

3. *Ingliz va o`zbek folklori janrlarining tarixiy taqdirdagi o`xshashlik prinsipi.* O`zbek folklori janrlari birdaniga va bir vaqtda yuzaga kelmagan. Folklorning eng qadimiy janrlari – mif, afsona, rivoyat, so`z sehriga asoslangan qo`shiqlar, shuningdek, mavsumiy marosim qo`shiqlari, ulardan keyingi bosqichda esa, ertak, doston, maqol va topishmoq, ulardan keyin latifa, lof xalq dramasi, askiya, tarixiy qo`shiq kabi janrlar yuzaga kelgan. Tarixan shu taxlitda shakllangan o`zbek folklorining janrlar tizimi o`z taraqqiyoti davomida rivojlandi, takomillashdi va hatto so`nish jarayonlarini ham kechirdi. Ingliz xalq og`zaki ijodi janrlari ham avvalo miflardan dostonlarga, dostonlardan ertaklarga, ertak va dostonlardan tarixiy va romantik qo`shiqlargacha bo`lgan bosqichda rivojlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, folklor asarlari xalqning o`z ijodiy mahsuli sifatida jahon adabiyoti taraqqiyotiga o`ziga xos hissa qo`shgan. Millat va elatlar tarixida og`zaki ijod masalalari etakchi o`rinni egallaydi. Folklor janrlari orasidagi mushtarakliklar, tamoyillarning o`zaro bog`liqligi, janrlarning bir-birini to`ldirib kelishi xalq og`zaki ijodining o`zini-o`zi boyitishidan dalolat beradi. Biz ushbu bobda ikki qit'a, ikki madaniyat, ikki davlatning o`zaro yaqinligi bo`lmagani holda

ingliz va o'zbek xalqlari og'zaki ijodi namunalari orasidagi umumiylik xususiyatlari, o'xshashlik tamoyillarini o'rganib chiqdik va bu asosda o'z fikrlarimizni bildirdik.

Ingliz va o'zbek folklori orasidagi o'xshashlik va mushtarakliklar insoniyat tarixida hamma millat madaniyati baravar rivojlana boshlaganini ko'rsatish bilan bir qatorda jahon tamaddunida dunyo xalqlari folklori bir-birini to'ldirib, kengaytirib borishining yaqqol namunasidir. Janrlar mavzusi, g'oyasi vatuzilishi orasidagi bir xillilik bu fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

O'zbek folkloridan ayrim namunalarni dastlab yozib oluvchi, tekshiruvchi va nashr etuvchilar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashagan Yevropa sayyohlari, elchilari va olimlari bo'ldilar. A.A.Kushakevich, N.Lyapunova, A.Vasilev, A.N.Samoylovich kabi olimlarning kundaliklari va asarlarida o'zbek xalqining maishiy turmushi, urf-odatlar, og'zaki ijodi bo'yicha muhim qaydlar uchraydi. Chunonchi, xalq qo'shiqlari, masxarabozlik, qiziqchilik san'ati, xalq sayillari haqidagi taassurotlari bayon qilingan; ba'zi og'zaki drama, ayrim ertaklarning tafsilotlari berilgan.

O'zbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari hamda og'zaki teatr namunalarini to'plash va nashr etishda N.P.Ostroumovning faoliyati salmoqlidir. U aslida missionerlik maqsadlarini ko'zlagan bo'lsa-da, bu sohadagi ishlari ob'ektiv ravishda o'zbek folklorini o'rganishga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Xuddi shu davrlardan boshlab o'zbek folklorining ayrim namunalari dunyo miqyosida ham tanila boshladi. Bunda mojar (venger) olimi va sayyohi H.Vamberining xizmatlari kattadir.

U 1867 yilda Leypstigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya-qo'llanmasida yuzdan ortiq xalq maqollarini, «Yusuf va Ahmad» dostonidan olingan parchalarni nemischa tarjimada o'zbekcha matn bilan

birgalikda nashr etdi. 1911 yilda esa «Yusuf bilan Ahmad» dostonining Xorazm versiyasini to`lalgicha nashr ettirdi.

XIX asrda ayrim folklor va kitob ishqibozlari, shuningdek, baxshilar tashabbusi bilan xalq dostonlarining ayrim qo`lyozma nusxalari yuzaga kela boshladi. Bunday nashrlar tarjima qilish yoki xalq dostonlari va ertaklarini qayta ishlash natijasida yaratildi. Shu xildagi asarlar jumlasiga «Hikoyati Go`ro`g`li sulton», «Yusufbek bilan Ahmadbek», «Tulumbiy», «Chor darvesh», «Rustami doston», «Tohir va Zuhra», «Oshiq G`arib va Shohsanam», «Sanobar», «Bo`zo`g`lon», «Bahrom va Gulandom», «Hurliqo va Hamro», «Aldarko`sa» kabilarni kiritish mumkin.

Xalq og`zaki ijodi namunalarini to`plash va tadqiq qilish ishlari asosan, XX asrning 20-yillaridan boshlab jonlandi.

O`zbek bilim hay`atining topshirig`i bilan Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida xalq ijodi yuzasidan kuzatishlar olib borgan G`ozi Olim Yunusov 1922 yillarda shu joyda tarqalgan ko`plab ertak, qo`shiq, topishmoq va maqollarni to`pladi. Eposshunoslik tarixida birinchi marta Fozil Yo`ldosh o`g`li va Hamroqul baxshidan «Alpomish» dostonining bir qismini yozib oldi. Olim o`z kuzatishlarining natijasini umumlashtirib maqola yozdi va unda o`zbek eposining yuksak namunalari: «Alpomish», «Go`ro`g`li», «Yusuf va Ahmad» kabi dostonlar haqida ilk bor fikr yuritildi. Shu narsa diqqatga sazovorki, tadqiqotchi «Alpomish» dostonini jahon adabiyotida muhim o`rin tutgan mashhur «Odisseya», «Iliada» kabi eposlarga qiyoslab o`rganadi.

Ingliz xalq og`zaki ijodi millat o`ziga bo`ysundirgan qabilalar adabiyoti hisobiga rivojlangan. Ingliz millatiga mansub og`zaki irod namunalarida aynan shuning uchun ham dunyoning turli xalqlarining folklori namunalariga o`xshash jihatlarni ko`plab ko`rish, uchratish mumkin.

Hindular va ko`chmanchi qabilalar madaniy merosi hisobiga boyigan bu adabiyot haligacha o`zining romantikaga boyligi, haqiqatga yaqin syujeti, oddiy va tushunarli qurilishi, soddagina tili bilan dunyo mamlakatlari xalqlari e'tiborini tortib kelmoqda.

II BOB. INGLIZ VA O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODIDA O`XSHASH SYUJETLAR

II .1. Ingliz va o`zbek xalq ertaklarida o`xshash mavzular: o`gay ona, o`gay qiz, qahramonlik.

Ertak – xalq og`zaki ijodidagi badiiy proza namunasidir. To`g`ri, ayrim ertaklar matnida kichik-kichik lirik she`rlar uchrab turadi. Ammo bunday ertak namunalari juda kam bo`lib ertakchilik xaqida alohida ta`sir ko`rsatmaydi.

Janr atamasi M.Qoshg`ariyning “Devoni lug`atit turk” asarida «etuk» tarzida qo`llangan. Xalqimiz orasida xozirgi paytda xam cho`pchak, utuk, matal, varsaqa kabi so`zlar ertak manosini anglatadi.<sup>1</sup> Ertaklar xalqning ijodkor vakillari tamonidan hayotiy, maishiy, sarguzasht ba`zan ijtimoiy vaqealarni to`qib qiziqarli tarzida bayon etilishi natijasida vujudga kelgan. Ularda xalqning tarixi, dunyoqarashi, intilishi, ozodlik uchun kurashi, falsafasi aks etadi. Qadimgi zamonlardan og`izdan-og`izga o`tib kelayotgan ertaklar zamonning o`zgarishi natijasida ro`y bergan yangiliklarni xam o`ziga singdirib boradi. Xalq og`zaki ijodini o`rganuvchi olimlarning takidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlar og`zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilish asoslarida o`xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu xususiyati ham ularning juda qadimdan yaratilganidan, turli xalqlar maishiy hayotida o`xshashliklarning ko`pligidan darak beradi. Ammo bu degan so`z ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ertaklar matnidagi qahramonlar ismlarida, muammolarida maishiy masalalarning ifodasida, tabiat tasvirida, voqealar bayonida hunarlarda milliy til, milliy ruh alohida aks etadi.

¹ Qoшg`арий Махмуд. Девону луг`отит турк, биринчи том, Т.: ЎзФА нашриёти, 1960, 98-бет.

Xalq ertaklarining ommaviyligi va yashovchiligini ham ularning shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin. O`zbek xalq ertaklari B.Karimov, F.Abullaev.M.Afzalov, K.Imomov, X.Egamov, kabi olimlar tamonidan o`rganilgan ular Xamrobibi Umarali qizi, Xasan Xudoyberdi o`g`li, Xusanboy Rasul o`g`li, Nurali Nurmat o`g`li, kabi o`nlab ertakchilardan yozib olganlar, tahlil qilganlar. Xalq ertaklarining tasnifini quyidagicha amalga oshirish mumkin.

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
2. Sehrli ertaklar.
3. Hayotiy-maishiy ertaklar

Aslini olganda, sehr va mo`jiza umuman ertak janrining mohiyatini belgilovchi omil xisoblanadi. Ertakning boshlanish qismidagi «Bir bor ekan, bir yo`q ekan» so`zlardan iborat boshlanma – «zachin»dayoq hikoya qilinadigan voqeaga ishonish yoki ishonmaslik tinglovchi ixtiyorida ekani anglatiladi. Ammo ertakning keyingi bayoni inson ruhiyati bilan shu qadar uyg`un amalga oshiriladiki, tinglovchi er ostidagi shaharlarga, kiyikning tuyog`idan sachrayotgan olmoslarga mutlaq ishongan holda o`z munosabatini bildiradi. Binobarin, sehr va xayoliy mushohada yuritish umuman ertak janrining yaratilishida etakchi o`rin egallaydi, degan asosimiz bor. Tabiiy, savol tug`iladi – u holda, ertaklarning tasnifi qanday nazariy asosga binoan amalga oshiriladi? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin – ertaklarning tasnifini amalga oshirishda ularning mazmuni bosh mezon hisoblanadi. Ertak mazmunidagi tasnifda qayd etilgan qaysi masala yuzasidan hikoya qilingan voqealar olib tashlanganda ertak mazmuniga ortiqcha zarar etsa, ertak tasnifi shu mavzu bilan belgilanadi.

O`zbek xalq ertaklari ham boy syujeti, barkamol badiiyati, barqaror kompozition qurilishga egaligi va ommaviyligi bilan jahon folklorida o`z o`rniga ega. Ularda xalqning qadimiy urf-odatlari, marosimlari hal qiluvchi rol o`ynagani tufayli xalq milliy qiyofasi butun bo`y-basti bilan gavdalangan bo`ladi. Shu sababli

ular, uzoq asrlardan beri tarixchilar, qadimshunoslar, etnologlar, o'lkashunoslar va adabiyotchilar, folklorshunos va tilshunoslarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ingliz va o'zbek xalq ertaklari orasida o'xshash mavzularni ko'plab uchratish mumkin. Bu jihatdan ertakdagi o'xshash mavzular sayyor syujetlar qatoriga kiritiladi. Bu syujetlardagi o'xshashlik, milliy jihatlardagi moslik adabiy aloqalar sohasida o'rganilishi kerak bo'lgan asosiy masalalardan biridir. Chunki har bir millat va elat vakili o'z tarixida boshqa millat vakili tarixi namunalarini uchratishi mumkin.

Ingliz xalq ertaklarida ham boshqa xalq ertaklarida bo'lgani kabi mehnatsevarlik, aql-zakovat, topqirlik, jasorat, qahramonlik kuylanadi, dangasalik, tanballik, axmoqlik kulgu ostiga olinadi, shafqatsizlik muhokama qilinadi. Ingliz xalq ertaklari boshqa davlatlar ertaklariga nisbatan kech to'plana boshlangan va nashr etilgan. Birinchi ingliz ertaklari to'plamlari o'n to'qqizinchi asr oxirlarida paydo bo'la boshladi. Birinchi bo'lib ingliz xalq ertaklarini ingliz folklori klubi prezidenti Jozef Jeykobs to'pladi va ikki jildli ingliz xalq ertaklari to'plamini nashrdan chiqardi. Ertaklarni to'plash juda qiyin kechdi, chunki ularning ko'pchiligi unutilgan edi. Jozef Jeykobs Sharl Perro, aka-uka Grimmlar kabi ertaklarni badiiy tahrir qilmadi, qayta ishlamadi, aksincha, ularni xalq o'z tilida yaratgani holida nashr ettirdi.

Ba'zi ingliz ertaklari boshqa xalqlar ertaklarini eslatadi. Ayniqsa, nemis va franstuz ertaklariga juda o'xshab ketadi. Angliya, Germaniya va Franstiyaning tarixi bir-biri bilan bog'liq va shu sababli ingliz xalq og'zaki ijodida boshqa davlatlar ta'siri sezilishi tabiiy. Lekin o'z aslida ingliz ertaklari betakror bo'lib qolgan.

Ingliz xalq sehrli ertaklari o'ziga xosligi, turliligi bilan ajralib turadi. Bunda to'qima qahramonlar, nopok kuchlar, maxluqlar tasviri, ertak yakuni, romantikasi o'ziga xos betakror o'ringa ega.

Ba'zi ertaklarning qahramonlari mehnatsevar, haqiqatgo'y, oliyjanob va jasur, ba'zi qahramonlar xalqning haqiqiy qahramoniga aylangan. Masalan, "Adventures of Jack the Giant-Killer" ertagidagi dehqon o'g'li Jek odamxo'r maxluqlar bilan jangga kirganda faqatgina mukofot haqida o'ylagan edi, lekin keyin xalqini odamxo'rladan qutqarish yo'lida haqiqiy jangchiga aylanadi.

Boshqa ertaklarning qahramonlari bu daraja yaxshilik qiluvchilar sirasiga kirmaydi. Ular hiylagarlik va aldov orqali o'z niyatlariga erishishadi. Lekin ularda o'ziga xoslik – tadbirkorlik va shijoat xarakterlarining asosiy belgisi hisoblanadi. Bu inglizlarda yuqori baholanib kelingan chunki bu xususiyat kapitalizm rivojlangib, burjua jamiyati shakllanayotgan davrda yaratilgan. Masalan, odamxo'r maxluqlarni aldash bilan "Molly Whoopie" ertagida Molli, "Jack and the Beanstalk" ertagida Jek o'zlari va o'z yaqinlari uchun baxtga erishadi.

Faqatgina ingliz xalqiga xos bo'lgan hajv uning ertaklarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ingliz ertaklarining ko'pchiligini yumoristik ertak deb aytish mumkin.

Ingliz folklorida o'xshash ertaklar variantlari mavjud. Masalan, uch ayiq haqidagi ertakning uch varianti mavjud. Birinchi variantida ayiqning uyiga tillarang jingalak sochli qizcha keladi, ikkinchisida kichkina ichiqora kampir keladi, uchinchisida tulki keladi.

"The Gingerbread Man" va "Johnny-cake" ertaklari ham ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash, lekin ular har xil ertaklar. Bu ertaklar o'z tuzilishiga ko'ra rus xalq ertagi "Bo'g'irsoq"ga o'xshaydi. "Catskin" va "Cap of Rushes" ertaklari ham syujet jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning farqini o'qish jarayonida bilib olish mumkin.¹

Bu kabi holatlarda o'gaylik, qahramonlik, vatanparvarlik kabi xususiyatlar, oyna, dev, ot kabi obrazlar o'xshash mavzularning yoritilishida muhim rol o'ynadi.

¹ <http://nota.triwe.net/> English Fairy tales. Introduction.

Tadqiqotimizda birinchi o`xshash mavzu sifatida o`gay ona va o`gay qiz mavzusini tanladik.

**Ingliz va o`zbek xalq ertaklarida o`gay ona va o`gay qiz obrazi.** O`gay qiz va o`gay ona tipidagi turkum ertaklar necha asrlardan buyon o`kuvchilarni mungli motivlari bilan o`ziga jalb etib keladi. O`gay qiz tipidagi ertaklarning obraz va motivlar tizimi real haqiqat, o`gaylik an`analari va etimlik bilan bog`liq kadimiy tushunchalar atrofida yuzaga kelib ta`limiy-estetik funkstiyalarni ado etadilar.

O`gay qiz hakida hikoya qiluvchi syujetlar Aarne – Andreevning syujetlar ko`rsatkichida¹ alohida, etim qiz haqida hikoya qismida jamlangandir. Mazkur tipdagi ertaklarning o`ziga xos xususiyatlari avvalo o`gay atamasi hamda o`gay qiz bilan o`gay ona o`rtasida sodir bo`ladigan ziddiyatlar tarixi bilan ajralib turadi.

O`gay qiz bilan o`gay ona shaxsini bir-biriga «begona» deb qarshi qo`yish va ajratish ma`lum bir zamon mahsuli, aniqrogi davrlararo ziddiyat, turmush qarama-qarshiliklari, jamiyatning ibtidoiy bosqichiga oid shart-sharoitlarning mafkuraviy qarashlari zahirida vujudga kelgan.

Mazkur tipdagi ertaklarning asosiy xususiyatlari avvalo o`gaylik mavzui hamda o`gaylikni hikoya qiluvchi motivlar silsilasi, syujetlar xarakteri, qolaversa ishtirok etuvchi personajlar tizimi, har bir personajning ayrim jixatlari hamda voqea hodisalarning xayoliy uydirmalar asosiga qurilganligi, ta`limiy didaktik g`oyalari bilan belgilanadi.²

Ingliz va o`zbek o`gay qiz turkumli ertaklarining asosiy o`xshashligi shundaki, ikkala millat ertaklarida ham asosiy funkstiyasi to`rt xil bo`lgan personajlar ishtirok etadi. Bular – o`gay qiz, rakib personaj – o`gay ona, «Cinderella»da sehrli vositalar bilan ta`minlovchi sehrGAR pari qatnashsa, «Zumrad va Qimmat»da mehribon momo timsollarida namoyon buladi. «Zumrad va

¹ Андреев Н. П. Указатель сказочных сюжетов по системе Аарне. Л., 1928.

² Имомов К. Ўгай қиз типдаги туркум эртақларнинг айрим хусусиятларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 2001, №3 йил. – Б. 33.

Qimmat» hamda «Cinderella» ertaklarini taqqoslaydigan bo'lsak, ikkalasida ham mushtarak g'oya ya'ni o'gay qiz ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Zumrad va Cinderella obrazlarining ertakdagi asosiy vazifalari o'gaylik va adolatsizlik, yovuzlik va insofsizlikka qarshi chiqishi bilan belgilanadi. Ikki xalq qaxramoni ham odobli, o'ta haqgo'y, qat'iyatli, adolatparvar, mehnatsevar, garchi o'gay onalari tazyiqi bilan mungli hayot kechirayotgan bo'lsalar-da, kelajakka ishonch ruhi bilan yo'g'rilgan pokiza qalb egasi. O'gay qizni tahqirlash turli ertaklarda turli xil tasvirlanadi. «Cinderella»da bu hol o'gay qizni og'ir ish bilan band qilib qo'yish bilan boshlansa:

«They took her pretty clothes away from her, put an old grey bedgown on her, and gave her wooden shoes. There she had to do hard work from morning till night, get up before daybreak, carry water, light fires, cook and wash»¹

«Zumrad va Qimmat»da esa uzoq manzillarga adashtirib kelish yoki haydab yuborish vositalari bilan aks ettiriladi:

«Bir kuni kampir Zumradni yomonlab, cholg'a do'q uribdi:

–Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor, o'rmonga oborib adashtirib kel! Bo'lmasa sen bilan bir nafas ham birga turmayman.»²

«Zumrad va Qimmat»da nuroniy va oqila momo bosh qaxramonni sinash va yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi. «Cinderella»da pari sehrli kuchlar vositasida o'gay qizga yordam qo'lini cho'zadi. Shuni aytish joizki, «Cinderella»dagi pari sehrni ishga solib yordam qo'lini cho'zsa, «Zumrad va Qimmat»dagi momo aql va zakovatini ishlatgan holda qaxramonga ko'maklashadi. «Zumrad va Qimmat»da momo timsoli o'gay qizni qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlaydi, ayni paytda do'stlik hamda hamkorlik timsoli sifatida bosh qaxramonni sinash va yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi, eng muhimi

¹ Ўзбек халк эртаклари. – Тошкент, 2007. – Б. 38.

² Andrew Lang, The blue fairy book. 5th ed. – London: Longmans, 1991. – P. 25-35.

yovuzlikni qoralab yaxshilik yo`lida turgan kishilarni rag`batlantirish yo`li bilan adolatni qaror toptiradi.

Ikkala ertaklarda ham yordamchi personajlar bo`lib, unda asosan tabiat bo`lagi bo`lmish hayvonot olami vakillari qatnashadilar. «Cinderella»da yordamchi personaj, asosan, parranda va zarranda shaklida paydo bo`lsa, «Zumrad va Qimmat»da magik kuchga ega bo`lgan kiyik orqali namoyon bulib, o`gay kizni ogohlantirish, yo`l ko`rsatish kabi harakat va munosabatlarni ado etadilar.

Ikki xalq ertaklariga bo`lgan yana bir o`ziga xoslik shundaki, ertaklar tabiati sehrli voqealar ko`lamini bo`rttiradi, jonlantiradi:

«Zumrad dam olganda gullar olqishlar, boshlarini egib salom berarmish, maysalar ustida o`tirib dam olganda gullar quvonib unga hikoyalar aytib berarkan»¹

«Cinderella»da:

« Cinderella, notwithstanding her coarse apparel, was a hundred times more beautiful than her sisters, although they were always dressed very richly. When she sang all flowers and birds sang with her.»²

Bu xil elementlar etakchi obraz tabiatidagi ichki kechinmalarni belgilaydi, o`gay qiz ruhiyatini ko`targandek bo`lib ezgulik har doim g`olibligini yosh avlodga etkazmoqchi bo`ladi. Qimmat va Cindrellaning o`gay opa-singillarni taqqoslash jarayonida ham sehrli bo`rttirishlarning guvohi bo`lamiz. Masalan:

«Qimmat kelsa butun gullar qovog`ini o`yib, maysalar oyog`iga poyandoz bo`lishdan bosh tortisharkan, uning yo`lida fakat tosh-xarsanglar uchrarkan»³

«Cinderella»da:

«All nature was against her sisters, when they appeared all flowers close and birds stopred chirping»¹.

¹ Ўзбек халк эртаклари. – Тошкент, 2007. – Б. 38.

² Andrew Lang, The blue fairy book. 5th ed. – London: Longmans, 1991. – P.25-35.

³ Ўзбек халк эртаклари. Тошкент, 2007. – Б.42.

Aytish joizki, o`gay qiz turkumidagi ertaklar o`ziga xos xususiyati, nasihatimiz motivlari va ta`limiy-didaktik g`oyalari bilan ajralib turadi.

Yana ikki ertakdagi o`xshashliklardan biri shundaki, bosh qaxramon ideallashtirib olinadi, bir vaqtning o`zida ideallashtirish bilan birga zulm va zo`rluk qoralanadi, bu orkali o`quvchilarni ezgulik sari etaklashga harakat qilinadi. Ertaklarda quyida keltirilgan ta`riflardan bosh qaxramon – o`gay qiz timsoli nakadar ideallashtirilganining guvoxi bo`lishimiz mumkin:

«Zumrad ko`p chiroyli, odobli, muloyim, aqlli qiz ekan, uni ko`rganda ko`zlar qamashib, chiroyiga hattoki oy ham hasad kilar ekan. Butun tabiat uning yaxshiligidan orom olar ekan.»²

«Cinderella»da:

«She was so kind and looked like as thousand lights shone upon her, And she was so beautiful that everyone who saw her was amazed. She was so open hearted and always helped to everybody even to animals.»³

Garchi bu ikki ertak ikki xalqqa tegishli bo`lsada, ertakdagi g`oya adolatning qaror topishiga, mehnatsevarlikka, ezgulikning g`olib bo`lishiga asoslangan.

**Bu ikki ertakdagi yana bir o`xshashlik – ilohiy yordamchilardadir.** Bu ilohiy yordamchilarga parilar kiritiladi. Ikki ertakda ham parilar epik ko`makchi yoki qahramonga yordamchi vazifasida keladi. Sinderellaning yordamchisi uning cho`qintirgan onasi – pari bo`lsa, Zumradga o`rmonda yashovchi kampir yordam beradi. Biroq kampir ham pari bo`lib, u ham ilohiy kuchlardan foydalanadi. Jahon xalqlari adabiyoti tarixida parilarning qahramonga epik ko`makchi sifatidagi funkstiyalari mohiyatiga ko`ra ikki tipga bo`linadi:

– O`z faoliyati bilan qahramonga bevosita yordam beruvchi epik ko`makchi. Odatda bunday parilar qahramon epik maqsadga erishuvida ko`maklashadi.

¹ Andrew Lang, "The blue fairy book" 5th ed. – London: Longman, 1991. – P.25-35.

² Ўзбек халк эртаклари. Тошкент, 2007. – Б.43

³ Andrew Lang, "The Blue Fairy Book" 5th ed. – London: Longman, 1991. – P. 25-35.

Masalan, ingliz xalq ertagi qahramoni Sinderella podshoh uyushtirayotgan ballga borishni juda xohlaydi.¹

This godmother of hers, who was a fairy, said to her, "You wish that you could go to the ball; is it not so?"

"Yes," cried Cinderella, with a great sigh.

Qizning ballga borish ishtiyoqi qanchalik kuchli ekanini ko`rgan pari unga yordam beradi va qizni seyr yordamida yaratilgan arava, kiyim-kechaklar bilan ballga jo`natadi.

"Well," said her godmother, "be but a good girl, and I will contrive that you shall go." Then she took her into her chamber, and said to her, "Run into the garden, and bring me a pumpkin."

Cinderella went immediately to gather the finest she could get, and brought it to her godmother, not being able to imagine how this pumpkin could help her go to the ball. Her godmother scooped out all the inside of it, leaving nothing but the rind. Having done this, she struck the pumpkin with her wand, and it was instantly turned into a fine coach, gilded all over with gold.

She then went to look into her mousetrap, where she found six mice, all alive, and ordered Cinderella to lift up a little the trapdoor. She gave each mouse, as it went out, a little tap with her wand, and the mouse was that moment turned into a fine horse, which altogether made a very fine set of six horses of a beautiful mouse colored dapple gray.

Being at a loss for a coachman, Cinderella said, "I will go and see if there is not a rat in the rat trap that we can turn into a coachman."

"You are right," replied her godmother, "Go and look."

¹ Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси). - Фил.фан.ном.дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 20-21

Cinderella brought the trap to her, and in it there were three huge rats. The fairy chose the one which had the largest beard, touched him with her wand, and turned him into a fat, jolly coachman, who had the smartest whiskers that eyes ever beheld.

After that, she said to her, "Go again into the garden, and you will find six lizards behind the watering pot. Bring them to me."

She had no sooner done so but her godmother turned them into six footmen, who skipped up immediately behind the coach, with their liveries all bedaubed with gold and silver, and clung as close behind each other as if they had done nothing else their whole lives. The fairy then said to Cinderella, "Well, you see here an equipage fit to go to the ball with; are you not pleased with it?"

Turli hayvon va jismlardan bu kabi kundalik ehtiyojdagi narsalarni sehr yordamida yaratish faqatgina parilarning qo`lidan keladi, bu esa Sinderella haqidagi ertakning sehriga boy va odamlarni mo`jizaga ishonadigan qilib tarbiyalaydi.

"Oh, yes," she cried; "but must I go in these nasty rags?"

Her godmother then touched her with her wand, and, at the same instant, her clothes turned into cloth of gold and silver, all beset with jewels. This done, she gave her a pair of glass slippers, the prettiest in the whole world. Being thus decked out, she got up into her coach; but her godmother, above all things, commanded her not to stay past midnight, telling her, at the same time, that if she stayed one moment longer, the coach would be a pumpkin again, her horses mice, her coachman a rat, her footmen lizards, and that her clothes would become just as they were before.

Bu jihatlar ertakning sehlilik xususiyatini yaqqol ochib beradi. Bu kabi sehlilik jihatlar ingliz ertaklari syujetini bo`rttirib ko`rsatish uchun kengroq qo`llaniladi. Bolalar olamining o`ziga xosligini ko`rsatish maqsadida qo`llanilgan

bu kabi holatlar hayotda mo`jizalar bo`lib turishini. Odamlar o`zlari ularni paydo qilishini isbotlashga bo`lgan bir urinish sifatida ko`rsatilgan.

Xuddi shunday sehrli nuqtalarni “Zumrad va Qimmat” o`zbek xalq ertagida ham ko`rish mumkin:

– Tomda qizil sandiq bilan oq sandiq bor. Oq sandiqni qoldirib, qizil sandiqni olib tush. Uni uyga borganingdan keyin och! – debdi kampir qizga... Qiz qizil sandiqni ochishi bilan hamma hayron qolibdi: qizil sandiq asl mollar bilan liq to`la ekan. Mol shuncha ko`p, shu qadar ajoyib emishki, Zumradning butun umriga etib ortar emish.¹

Parilarning o`z otalig`idagi qahramonlarni maqsadiga erishtirishi, ularni farovon hayotga boshlashi ertaklarda ularning homiylik xususiyatlarini ochib beradi.

Cinderellaning o`zgarishi va pari timsoli yordamida o`z baxtini topishi o`zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat”dagi kampir timsoli – o`rmon parisining Zumradga turli sovg`alar berishi va o`z baxtini topishida yordam berishi har ikkala millat folklorida o`xshash jihatlar ekanligini ko`rsatib beradi. Har ikkala ertakdagi pari obrazi insonning yaxshiligi behuda ketmasligini, bir kun bo`lmasa bir kun, albatta qaytishini, ilohiy kuchlar yaxshi odamlarga doimo yordam berishini eslatib turuvchi tarbiyaviy-estetik xususiyatga ega obraz sifatida yuqori qadrlanadi. Shu bilan birga parilarning folklor asarlaridagi xususiyatlari quyidagicha tasniflanadi:

– Parilar o`zining maslahatlari bilan qahramonga bilvosita yordam beruvchi epik ko`makchilar sifatida talqin qilinadi. Masalan, “Bulbuligo`yo” ertagida maymun parining bilvosita yordami, ya`ni maslahatlari bilan kenja

¹ Ўзбек халқ эртаклари. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б.58

shahzoda bulbuligo`yo qush, Arzaki jodugarning oti va podshoning qizini olib keladi.¹

– Sen aytgan qush bulbuligo`yo ekan. Qafasning tagidan chiqdim. Bu g`orga kirasan, teshik og`ziga etasan. U erda saroy bor, askarlar ko`p. Yarim istiqomat etasan. Askarlar uxlaydi. Shunda qafasga qo`lingni uzatasan, tepasini ochib ko`rmasdan olib chiqasan.

Maymun ko`rinishidagi pari kenja shahzodaning hamma ishlarida shu tariqa yordam berib. Uning eson-omon uyga qaytishini ta'minlaydi.

Ingliz xalq ertaklarida ham pari obrazi ko`pincha yovuz kuchlarni engishda yordamchi bo`lib keladi. U gohida cho`qintirgan ona, gohida enaga rolida keltiriladi.

“Sleeping beauty” – “Uyqudagi go`zal” ertagida yovuz jodugar qarg`ishini mehribon pari qaytaradi va malikani o`limdan saqlab, uxlatib qo`yadi.

Once upon a time there was a Queen who had a beautiful baby daughter. She asked all the fairies in the kingdom to the christening, but unfortunately forgot to invite one of them, who was a bit of a witch as well. She came anyway, but as she passed the baby's cradle, she said:

"When you are sixteen, you will injure yourself with a spindle and die!"

"Oh, no!" screamed the Queen in horror. A good fairy quickly chanted a magic spell to change the curse. When she hurt herself, the girl would fall into a very deep sleep instead of dying.

Parilarning insonlarga yordami, ularni balo-qazolardan asrashi o`ziga xos badiiy talqin yaratadi va bu mifologik obrazning asardagi funkstiyalarini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu ertakda ham parilar qarg`ishning oldini olish bilan bir qatorda mamlakat aholisini uxlatib qo`yadilar va shahzoda o`z mahubasiga

¹ Qаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси). - Фил.фан.ном.дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 20-21

etmaguncha, uni uyg`otmaguncha hech kimni uyg`otmaydilar. Bu bilan ular hammani g`am-alamdan asrab qoladilar.

**Ingliz va o`zbek xalq ertaklarida sehrli oyna obrazi.** O`zbek va ingliz xalq ertaklarida yana bir keng tarqalgan o`xshash obraz borki, bu sehrli oyna obrazidir. Sehrli ertaklar poetikasida tilsim alohida o`rin tutadi. Tilsim va tilsimli hodisalar ta'sirchanlikni orttirib, ertaklarga xos tabiat yaratadi, voqea va hodisalar mazmunini ochadi, qahramon ruhini belgilaydi. Tilsim syujetning asosiy bezagi, ertak poetikasining tarkibiy qismidir. Chunki sehr-jodu va tilsim vositalari ertak syujetini harakatga keltiradi, qahramonlar xarakterini belgilaydi.

O`rta Osiyoda yashagan qadimgi xalqlarning oyna bilan bog`liq e'tiqodiy qarashlari¹, shuningdek, oyna detalining marosim va udumlardagi o`rni masalalari ma'lum darajada o`rganilgan.

Sehrli oyna dunyo folkloridagi ertaklar syujetida ko`p uchraydigan an'anaviy obrazlardan biri bo`lib, u syujet voqkalarini rivojlantiruvchi muhim badiiy detal sifatida qo`llaniladi. O`zbek va ingliz xalq ertaklarida sehrli oyna obrazi ertak rivojlanishini boshqaruvchi asosiy elementlardan biridir.

Oyna insonning aql-zakovati bilan yaratilgan noyob qurilmadir. Xalq marosimi va udumlarida oyna keng qo`llanilgan. Shuning ta'sirida folklor asarlarida oyna qahramonni yovuz kuchlardan himoya qiluvchi vosita sifatida badiiy talqin qilina boshlagan. Ertaklarda u ko`pincha insonlardek gapirish xususiyatiga ega, uzoqdagi kishilar va voqealardan xabar bera oladigan magik qudratli vosita sifatida talqin qilinadi. Ertaklar va afsonalarda tilsim oynaning egasi sifatida ko`pincha o`zga olam vakillarining mifik obrazlari – yalmog`iz kampir yoki parilar ko`rsatiladi.² Bunda oyna ruhlari haqidagi mifologik qarashlar ta'sir

¹ Литвинский Б.А.Зеркало//Орудие труда и утварь из могильников западной Ферганы. Гл.VIII. – М: «Наука», 1978. – С.73-126

² Имомов К., Мирзаев.Т, Саримсоқов Б., Сафаров.О. Ўзбек халқ оғ`заки поэтик ижоди. Дарслик. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.187.

ko`rsatadi. Ertaklarda qahramon tilsimli oynadan foydalanish uchun uning egasini chorlab, unga murojaat qiladi. Umuman, sehrli ertaklarda uchraydigan tilsim – ko`zguning badiiy vazifalarini quyidagicha tasnifga ega:

Sehrli oyna orqali istagan kishining ahvolidan xabar topishi. O`zbek xalq ertaklarida bu jihat, asosan, qahramonning uzoq safarga ketishi va ma'lum muddatli yo`l uzoqlikdagi sevgilisidan xabar olishi bilan bog`liq. Bunga misol qilib “Malikai Gulozor” ertagini olish mumkin. Bu ertakda qahramon sehrli ko`zgu vositasida ikki oylik yo`l uzoqlikdagi sevgilisining holidan bir zumda xabar oladi. Bu motivning genezisi aynan qadimgi insonlarning oyna ruhlari haqidagi tasavvur-tushunchalariga borib taqaladi. Ingliz xalq ertagida bu holat jodugarning o`z go`zalligini ko`z-ko`z qilishi bilan bog`liq. Masalan, “Snow-white” – “Oppog`oy” ingliz xalq ertagida o`gay ona – qirolichaning sehrli oynasi bo`lib, u doimo dunyodagi eng go`zal kim ekanligini, bu borada undan o`tadigan odam dunyoda bormi-yo`qligini so`raydi.

Now the queen was the most beautiful woman in all the land, and very proud of her beauty. She had a mirror, which she stood in front of every morning, and asked:

Mirror, mirror, on the wall,

Who in this land is fairest of all?

And the mirror always said:

You, my queen, are fairest of all.

And then she knew for certain that no one in the world was more beautiful than she.

The mirror said:

You, my queen, are fair; it is true.

But Little Snow-White is still

A thousand times fairer than you.¹

Xuddi shu nuqtada ertakning syujetidagi sehrli oyna obrazi qahramonni atrofda bo`layotgan voqea-hodisalardan ogoh etishi, yoki o`z sohibi istagan narsani ko`rsata olishi ochib berishi ko`rsatiladi. Oynaning sehriligi, uning aytgan gaplari, ko`rsatgan voqealari sabab ertak syujetining kengayishi, boyishini har ikki millat folkloridan keltirilgan misollarda ko`rish mumkin.

“Beauty and the Beast” ingliz xalq ertagida ham shu kabi sehrli oyna syujetini uchratamiz. Otasini ko`rmoqchi, holidan xabar olmoqchi bo`lgan qizga maxluq bir oyna beradi va unda istagan narsasini ko`rishi mumkinligini aytadi. Qiz uyga qaytgach, uning gaplariga hech kim ishonmaydi. U esa mana shu oyna orqali maxluqni hammaga ko`rsatib, otasining jinni emasligini isbotlaydi.

This dream left *Beauty* so uneasy that next day she opened one window after another to cure her restlessness; and, when this would not do, all the windows together; but still in vain. That night, when the *Beast* paid his usual visit, he detected almost at once that she had been weeping, and demanded the reason.

“Ah, sir,” said *Beauty*, “if only I might go home!”

“You wish to go home?” The *Beast*’s face turned pale—which, for such a face, was no easy matter. He staggered backwards with a deep sigh, or rather, a roar of grief. “Ah, *Beauty*, *Beauty*! Would you desert a poor *Beast*? What more can I do to make you happy? Or is it because you hate me that you wish to be gone?”

“No, *Beast*,” answered *Beauty* gently; “I do not hate you, and I should be very sorry never to see you again. But I do long to see my own people. Let me go

¹ <http://nota.triwe.net>. Snow-white and seven dwarfs.

home for two months only, and I promise to come back and stay with you for the rest of my life.”

“Then take this mirror and you will see whatever you want. Be careful and don’t forget *Beast* will be waiting for YOUR return.”¹

Ingliz ertagidagi bu kabi syujet o`zbek xalq ertaklarida uchramasa-da, oynaning xususiyati o`zbek xalq ertaklarida kengroq yoritilgan. O`zbek xalq ertaklarida oyna dunyo voqealaridan xabardor etishi, yolg`onchining sirini fosh etishi, qahramonning boshidan kechirgan qiyinchiliklardan ogoh etishi va haqiqatning yuzaga chiqishini ta’minlashi kabi xususiyatlarga ega.

Ertaklarda tilsimli oyna qahramonning xohishiga qarab harakatga olinadigan sirli predmet ekanligi badiiy talqin qilinadi. Dunyo xalqlari og`zaki ijodida yaratilgan sehrli oyna obrazi folklor va yozma adabiyot asarlarida tugunni yaratuvchi, voqealar rivojiga turtki beruvchi muhim detal sifatida talqin qilinadi.

Ingliz va o`zbek ertaklaridagi yana bir o`xshash obraz – dev obrazidir. O`zbek ertaklarida ham, ingliz ertaklarida ham dev ko`pincha salbiy obraz bo`lib keladi. U qahramonni o`z yo`lidan qaytaruvchi, unga qiladigan ishida xalaqit beruvchi yovuz obraz sifatida talqin qilinadi. Masalan, “Molly Whoopie” ertagida devning vajohati quyidagicha tasvirlangan:

At last the girls saw a light between the trees. It came from a window of a house. They went up to the house and knocked at the door. A woman came and said, "What do you want?"

"Please let us in and give us something to eat. We are so tired and hungry."

The woman answered, "I can't do that. My husband is a giant. He will kill you when he comes home."

¹ <http://nota.triwe.net>. Beauty and the beast.

"Let us stop for a little while," they begged, "we shall go away before he comes."

The girls begged so hard that she let them in. She set them down before the fire and gave them bread and milk. While they were eating, a great knock came at the door, and a dreadful voice said:

"Fee, fi, fo, fum,

I smell the blood of some earthly one.

Who is there, wife?"

"It's three poor little girls, cold and hungry," said his wife. "They'll go away. Don't touch them. I've got a good supper ready for you."¹

Xuddi shu holatlarni o`zbek xalq ertaklarida ham uchratish mumkin. "Opa-singillar" ertagida ota o`limidan keyin o`g`il uning vasiyatiga ko`ra, opalarini eshikdan so`rab kelgan uch qalandarga chiqarib beradi. Ularning uchalasi ham dev edi. O`g`il boshiga mushkul ish tushib, opalarinikiga borib qolgan ular yigitni sandiqqa yashiradilar. Dev bo`ron, dovul bilan kirib keladi va xotiniga dey di:

- Uf, uf, uf! Odam isi kelayapti. Kimdir keldimi?

"Non qudrati" ertagida kenja botir uch maxluq bilan olishadi. Maxluqlarning unga shunday munosabatini bu ertakda ham ko`rish mumkin.

Ingliz va o`zbek xalq ertaklarida o`xshash mavzularni ko`plab uchratish mumkin. Masalan, ingliz ertagi "Sohibjamol va maxluq" ertagi bilan o`zbek xalq ertagi "Ilonshoh" bir xil syujetga ega. Har ikkala ertakda ham jodugar kampir qahramonni sehrlab, maxluqqa aylantiradi va maxluq qizning muhabbati bilan sehr kuchidan xalos bo`ladi. Quyida keltirilgan misol "Sohibjamol va maxluq" ertagida

¹ <http://nota.triwe.net>. Molly Whoopie.

qizning orzulari amalga oshishi va maxluqning o`z holiga qaytishi – shahzoda bo`lishi bilan yakunlanadi:

Beauty turned again to her lover and saw that he, who had been a *Beast*, was indeed the *Prince* of her dreams and handsomer than the day. So they were married and lived happy ever after; nay, so happy were they that all over the world folks told one another and set down in writing this wonderful history of *Beauty and the Beast*.

O`zbek xalq ertagi “Ilonshoh”da ham xuddi shu holatni ko`rish mumkin:

Qiz bilan Ilonshohning to`yi juda dabdabali o`tdi. To`ydan keyin Ilonshoh ko`rkam va pahlavon bir yigitga aylanibdi. Uni Qoratog`da yashovchi bir jodugar qasddan sehrlab, ilonga aylantirib qo`ygan, hamda shu cholning kenja qiziga uylansagina sehrdan xalos bo`ladi, deb shart qo`ygan ekan. Yigit shohning o`g`li ekan.

Ikkala ertakning bir-biridan farqi shundaki. O`zbek xalq ertagi “Ilonshoh”da kenja qiz majburan turmushga uzatiladi. O`z xalqini suvsizlikdan qutqarish uchun Ilonshohga turmushga chiqishga rozi bo`ladi.

Ingliz xalq ertagi “Sohibjamol va maxluq”da qiz maxluqni sevib qoladi va o`z roziligi bilan unga turmushga chiqadi. Bu holat ham millatlar mentalitetidan kelib chiqqan bo`lib. O`zbek xalqi qizlarni turmushga uzatishi tarzi Evropa xalqlarinikidan farq qilishi ko`rsatilgan.

II.2. Ingliz va o`zbek xalk og`zaki ijodida raqamlar va ularning ishlatilishidagi o`xshashliklar

Inson sanashni o`rgangan juda olis zamonlardanoq turmushdagi turli hodisalar sirini muayyan raqamlarga bog`lash an`anasi paydo bo`lgan. Sanoq

tizimidagi dastlabki an'analar uch raqami bilan bog'liq. Ertaklarda bu raqam syujetni kengaytirish, ertak motivini bo'rttirish, rivojlantirish uchun foydalanilgan. Masalan, "Three Little Pigs", "Goldilocks and the Three Bears" kabi ingliz xalq ertaklarida, "Ota vasiyati", "Uch og'ayni-botirlar" kabi o'zbek xalq ertaklarida uch raqamining ertak rivojini kengaytirishdagi rolini ko'rish mumkin. Chunki bu ertaklarda syujetdagi holat uch marotaba takrorlanadi.

"Hunarmand yigit" ertagida ham an'anaviy sehrli raqamlarga murojaat qilingan. Shu raqamlar vositasida ertak mazmuni yanada chuqurroq, yanada kengroq ochilgan. Ertakda, ayniqsa, uch raqami ko'p uchraydi. Masalan: yigitning uch hunarni o'rganishi va shu uch hunari orqasidan hayotini saqlab, boyib ketishi, boyning xizmatkorlari orasida uch kun o'tmasdanoq tanilishi, podshoning qizini shatranjda uch kunda engishi uch raqamining o'zbek xalq og'zaki ijodidagi o'rnini ko'rsatib beradi. Aynan shu raqam takrori o'z mohiyati bilan tasvirning ta'sirini oshirib borgan va ertak syujeti voqealariga davomiylik bag'ishlagan hamda unga sarguzashtlik xususiyatini singdirgan. Natijada ertakda takror va tasvir unsurlari saqlab qolingan.

Tarixdan ma'lumki, uch raqami janr syujetini kengaytirish, uni boyitish uchun ertaklarda keng qo'llanilgan. Raqamning bu xususiyatlarini har ikkala millat ertaklarida ham uchratish mumkin. "The Three Little Pigs", "Goldilocks and Three Bears" ertaklarida syujetni o'quvchiga kengroq berish, takroriylik orqali ertak mazmunini kengaytirish uch raqami orqali ochib berilgan. Ertaklarda bir holat uch bora takrorlanadi va har takrorda qandaydir o'zgarishlar kiritib boriladi. Holatlarning uch marta takrorlanishi, kengaytirib borilishi bir tarafdin ertak mazmunini kengaytirishga xizmat qilsa, ikkinchi tarafdin o'quvchining qiziqishini orttirishga, uni ertak yakuniga qadar borishga undaydi:

There was once a mother pig who had three little pigs. When they were old enough to leave home, she sent them into the world to seek their fortune.

The first pig met a man who was carrying a bundle of straw, and he said to him:

"Please may I have some of your straw to build a house?"¹

Bu ertakda cho`chqa bolalaridan birinchisi somondan, ikkinchisi o`tindan uy quradi, bu uylarning buzilishi osonligi sabab bo`ri ikki uyni buzib, cho`chqa bolalarini eydi. Uchinchi cho`chqa bolasi g`ishtdan uy quradi va o`z uyiga mo`ridan kirmoqchi bo`lgan bo`rini qozonda qaynatib, o`ldiradi. U umrining oxirigacha baxtli yashaydi:

Now the wolf was very angry indeed. He decided to climb down the chimney and eat up the little pig. When the little pig heard a noise on the roof, he put his biggest pot on the fire to boil, and took the lid off just as the wolf was coming down. The wolf fell in, and the little pig boiled him. The little pig lived happily ever afterwards in his safe little house of bricks.²

«Ota vasiyati» bo`lib, u o`zbek xalqining ideal hayot haqidagi orzu-havasini tasvirlovchi sehrli ertaklar sirasiga kiradi. Ertak otaning o`g`illariga qilgan vasiyati haqidadir. Otaning uch o`g`li bo`lib, o`limidan oldin ota ulardan o`z qabrini uch tun poylab yotishlarini so`raydi. Ikki katta o`g`il bunga ko`nmaydi. Kenja o`g`il vasiyatni bajarib, qabrni uch tun poylaydi.

Kenja o`g`il poyloqchilik qilgan uch tunda uchta ot navbatma-navbat osmondan qurol-aslaha, kiyim-kechak bilan uchib tushib, qabrni uch marta aylanadi. Bu holat ertakda quyidagicha berilgan:

«Yarim kecha bo`lganda bir oq ot osmondan yarog`-aslaha, kiyim-kechak bilan tushib, go`rni uch marta aylanib turibdi».³

Shu jarayonda uchta sehrli otga ega bo`ladi. Shu sehrli otlar yordamida u mamlakat podshosi qo`ygan shartlarni bajarib, malikaga uylanadi.

¹ <http://nota.triwe.net>. Three Little Pigs.

² <http://nota.triwe.net>. Three Little Pigs

³ Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Шарқ, 2007.2-жилд – Б.113

“Hunarmand yigit” ertagida an’anaviy uch raqamidan tashqari etti raqamidan ham keng foydalanilgan: “Mamat quduqqa tushib ketgach, uning ostida kasal yotgan devga duch keladi. Dev etti yildan buyon kasal, hushsiz yotgan bo`lib, u etti kunda Mamat chalgan g`ijjak navosidan hushiga keladi”. Uch raqamiga aloqador holatlarning tarjimasidan farq qilgan holda etti raqami ishtirokidagi tasvirlar o`quvchi tasavvurida bir qadar kengroq holatlarni namoyon etadi. Jumladan, devning etti yil kasal yotganidagi muddat va uning etti kunda tuzalib ketishi raqam sehriga bir qadar ishonch uyg`otadi.¹

Ingliz va o`zbek xalq ertaklarida etti raqami ham alohida magik qudratga ega. Sehrli ertaklardagi bu raqam ertak syujetini yakuniga etaklaydi. “Snow-White and Seven Dwarfs” – “Oppog`oy va etti gnom” Umuman, etti gnom singari g`ayrioddiy ko`makchilar qahramonning mifologik tabiatini tashkil etadi. M.Jo`raevning fikricha, folklorda etti raqami magik raqam sifatida an’anaviylashuvi ajdodlarimiz tabiatidagi ibtidoiy qarashlarga borib taqaladi. Bu raqam ostida O`rta Osiyoda yashagan turkiy elatlar mifologiyasida tabiatni mifologik anglash va ajdodlar kulti haqidagi qarashlar birlashib ketgan. Ma’lumki, harakatning etti marta takrorlanishi uning davomiyligidan tashqari qo`shimcha semantik belgiga ega.<sup>2</sup> Devning etti yil kasal yotishi va etti kunda tuzalishi ham shu belgi bilan ifodalanadi. O`zbek xalqi orasida etti raqami bilan bog`liq aqida ham mavjud bo`lib, «etti - ketdi» ko`rinishidagi bu aqidaga, asosan, ettidan o`tsa, har qanday kasal tuzaladi yoki aksincha, deb qaraladi. «Hunarli yigit» ertagida ana shu aqida nazarda tutilgan bo`lib, etti yil kasal yotgan devning etti kunda tuzalishi raqamning xuddi shu “sehrli xususiyati” bilan bog`liq.

Raqamlarning bu kabi xususiyatlari millat va elatlar tarixida ularning o`rni bir xil ekanligini ko`rsatib beradi.

¹Uzbek Folk Tales. – Bishkek, Kyrgyzstan, 1997. – P.186-187.

²Жўраев М. Рақамларда яширинган олам. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986. – Б.14-15

II.3. Dostonlarda o`xshash mavzu va g`oyalar

Doston – liro-epik janrdagi badiiy asar. Dostonlarda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Ularda hayot, voqelik keng ko`lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko`p bo`ladi. Dostonlar syujeti sertarmoq, rang-barang. Xalq og`zaki ijodida dostonlar nasr va nazmda bo`ladi.

O`zbek eposshunosligida xalq dostonlari akademik V.M.Jirmunskiy va professor H.T.Zarifovlar tomonidan ilk bor tasnif etilgan bo`lib, ular dostonlarni qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik va kitobiy kabi turlarga ajratganlar.¹

60-yillarda o`zbek xalq dostonlari professor M.Saidov tomonidan tasnif etildi. U xalq dostonlarini qahramonlik, muhabbatni kuylovchi, romanik, jangnoma, tarixiy va yangi dostonlar kabi tiplarga ajratdi.

80-yillarda professor B.Sarimsoqov xalq dostonlarini tarixiylik prinstiplari jihatidan tasnif etish lozimligi haqidagi qarashni ilgari surdi va xalq eposining uch tarixiy-struktural tipdan iboratligini aytdi. Bular: qahramonlik, romanik hamda tarixiy dostonlardir.²

Barcha millat va elatlarda mavjud bu janrning boshqalaridan farqi ham anchagina. O`zbek xalq og`zaki ijodida dostonchilikning asosiy xususiyati shundaki, u maxsus aytuvchilar – baxshilar tomonidan kuylanadi. O`zbek xalq dostonlarida variantlilik ham mavjud.

Qahramonlik dostonlari patriarxal-urug`chilik jamiyatining so`nggi bosqichlarida yoki ilk feodalizm davrida turli urug`lar o`rtasida o`zaro nizolar

¹ Жўраев М. Рақамларда яширинган олам. Тошкент: Ўзбекистон, 1986, Б.14-15.

² Саримсоқов Б. Халқ дostonлари таснифи ва оралиқ шакллар. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1981, №3. Б. 37-47.

bo`lib turgan va ular muayyan hududlarga joylashayotgan hamda yagona xalq sifatida birlashishga intilayotgan davrlarda yaratilgan. Bir qator urug` va qabilalarning muayyan xalq sifatida tashkil topa borishi, ilk davlatchilik kurtaklarining paydo bo`lishi va shu munosabat bilan xalqlar hamda elatlarning o`z mustaqilliklari uchun chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan mardonavor kurashlari qahramonlik dostonlarida o`z ifodasini topgan. Bunday dostonlarda «... qahramonlar obrazi va ular amalga oshirgan jasoratlar tabiiylik chegarasidan birmuncha yuqori bo`ladi».¹

Jahon mumtoz adabiyotidagi dostonlar keng qamrovliligi va hajmining kattaligi, ko`tarib chiqqan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy muammolari, syujetining sertarmoqligi va dramatizmining o`tkirligi, personajlarining ko`pligi bilan ajralib turadi. Bunday asarlar markazida jamiyat va xalq taqdiri turadi. Jamiyat, xalq va qahramon yaxlit bir butunlikda tasvirlanadi, ular o`rtasida ziddiyat bo`lmaydi, balki shu xalq, shu qahramon bilan tashqi dushmanlar o`rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do`stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g`oyalari ilgari suriladi.

Ingliz dostonlari – balladalari ham o`ziga xos ko`rinishlarga ega. Boshqa xalqlar dostonlari, qo`shiqlari singari ingliz xalq dostonlarida ham muhabbat, sadoqat, mardlik, jasorat kuylanadi, sotqinlik, yomonlik, razolat qoralanadi.

Biroq shunday bo`lsa-da, ingliz xalq og`zaki ijodida ham o`zbek xalq og`zaki ijodidagi kabi qahramonlik ruhida yozilgan doston – poemalar anchagina. Ingliz folklorining bu janrida, asosan, qahramonlik va jangovarlik g`oyalari ustunlik qiladi. Eramizdan avvalgi taxminan 1000 yillarda yaratilgan “Battle of Maldon” poemasi ham xuddi shu qahramonlik va vatanparvarlik ruhiyatida yozilgan. “Battle of Maldon” – muallifi noma`lum doston bo`lib, u er.avv. 991

¹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекской народный героический эпос. – М.: ГИХЛ., 1947, С.378.

yilda Meldondagi ingliz va viking jangchilari orasidagi urushni tasvirlab beradi. Poema bosh qahramoni Esseks grafi Byortnot (Byrhtnoth). Vikinglar elchisi agar inglizlar soliq to`lab turishsa jang bo`lmasligini kelib etkazadi, lekin Byortnot bu taklifni rad etadi. "Battle of Maldon" dostonining original nusxasi 18-asrda bo`lib o`tgan yong`inda yo`qolib ketgan. Bugungi kunga kelib bu poema qahramonlik tashviqotining an'anaviy bir qismi hisoblanadi va qadimgi milliy harbiy jasorat va vatanparvarlikni o`zida mujassamlashtiradi.

Meldon jangi anglo-sakson qiroli Etelred hukmronligi yillarida bo`lgan. Anglosaksonlar xronikasi va 991 yilning 10 avgustida bo`lib o`tgan voqealar asosida yozilgan "Battle of Maldon" dostoni bo`yicha shuni aytish mumkinki, skandinaviyaliklar qo`shinini Olaf Tryuggvason boshqargan. Ivkinglar qo`shinining soni 2000 – 4000 tagacha etgan. XII asr monaxlari yozib qoldirgan «Liber Eliensis» xronikasiga ko`ra anglo-saksonlar armiyasi raqibiga qo`shin sonida teng kelolmay engilgan.

991 yilda yaratilgan «Anglosakson xronikasi»ga ko`ra, urushgacha shahar normanlar tomonidan g`orat etilgan va tunab ketilgan. Jangda Byortnotning halok bo`lishidan so`ng vikinglar bilan jangda ortiqcha yo`qotishlar va qon to`kilishiga yo`l qo`ymaslik uchun daniyaliklar arxiepiskop Sigerix aralashuvi bilan daniyaliklar bilan sulh tuzishadi va ularga boshlang`ich badal sifatida 10 000 funt to`lashadi va shu hajmdagi pulni keyin ham shu miqdorda to`lab borishni o`z bo`yinlariga olishadi.

VIII asrda vikinglar tomonidan Britaniya orollariga qilingan hujumlar natijasida Angliyaning sharqiy hududida skandinaviyaliklar o`z legionlari tuzadilar, unda daniyaliklar qonuni hukm surardi. Faqatgina X asrga kelib qiroli Eduard bu hududni Angliyaga qaram qilib oladi, biroq yana vikinglar hujumi boshlanadi. Meldon jangi ana shu hujumlar natijasi sifatida e`tirof etiladi:

Then Byrhtnoth began to array men there,
rode and gave counsel, taught warriors
how they must stand and that stead hold,
bade them their round-shields rightly hold
fast with hands, not at all frightened.
When he had fairly arrayed that folk,
he dismounted among them where it most pleased him,
where he knew his hearth-band most loyal.

Byortnotning o`z jangchilari qatorida turib jang qilishi, ularga yo`l-yo`riq ko`rsatishi tasvirlangan bu parcha bizga ham inglizlarning jangovar harakatlarini ochib berish bilan bir qatorda hamma millat vakillari o`z ozodligini hamma narsadan ustun qo`yishini ochib beradi. Normanlarning Angliya hududiga bosib olish uchun emas, talon-taroj qilish maqsadida kelganligini vikinglar sardorining quyidagi so`zlaridan bilib olish mumkin: «we willað wið þam golde grið fæstnian» (Tilla uchun biz siz bilan sulh tuzamiz):

"Thought must be the harder, heart be the keener,
mind must be the greater, while our strength lessens.
Here lies our prince all hewn,
good one on grit. He may always mourn
who from this war-play thinks now to turn.
My life is old: I will not away;
but I myself beside my lord,
by so loved a man, think to lie."
So Aethelgar's son emboldened them all,
Godric to battle. Often he let spear,

slaughter-spear, speed into those Vikings;
so among folk he went first,
hewed and humbled, until he in fight fell.
(That was *not* the Godric who fled from battle.)

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan qahramonlik dostonlarining yorqin namunasi sifatida bizgacha «Alpomish» eposi etib kelgan.

“Alpomish” dostonining og'zaki epik an'analarda bizgacha etib kelgan nusxalari 9-10 asrlarda yaratilgan. Ammo bu fakt dostonga asos bo'lgan syujet va etakchi motivlarning mifologik va tarixiy-hayotiy ildizlari qadimiy davrlarga – miloddan avvalgi zamonlarga taqalishini inkor etmaydi. “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-boblarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.

Doston Qo'ng'iro't urug'i boshliqlari – aka-uka Boybo'ri va Boysarining farzandsizligi taviri bilan boshlanadi. Unda Alpomish, Barchin va Qaldirg'ochning bir kunda tug'ilishi, Barchinning Alpomishga beshik-kerti qilinishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab o'n ming uyli elat bilan qalmoq eliga ko'chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari, Qorajon bilan do'st tutinib, Barchin shartlarini bajarishi va yorini olib o'z yurtiga qaytishi, keyin yana etti yil tutqunda qolishi, zindondan oti Boychibor yordamida qutulib, o'z yurtiga umr yo'ldoshi Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan majburiy to'yi ustiga kelishi ham raqibini engib, murod-maqsadiga erishishi voqealari juda qiziqarli, eposga xos rang-barang badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan:

Bu dushmanni ko'kka otsang, ne bo'lar?

Ish ko`rsatsang, mening ko`nglim topilar.
Qizlar sizni nar-moda deb ataydi,
Qizlarning aytgani menga botadi,
Mardlar olishmaydi, siltab otadi,
Maydon bo`lsa, ish ko`rsatib ketadi,
Bo`sh odamning ishi keyin ketadi.

Alpomish va Qorajon, Qultoy va Yodgorlarning o`zaro munosabatlarida jamiyat taraqqiyotining dostonda tasvirlangan bosqichiga xos oliyjanob soddalik, ulug`vor vazminlik, patriarxal insoniylik, bolalarcha beg`ubor samimiylik g`oyatda go`zal mujassamlangan.

Alpomish kimga qarshi va nima maqsadda kurashayotganligini juda aniq bilgan, gunohsizdan gunohkorni farq qila oladigan qahramondir. Uning oliyjanoblighi ham shundadir. Dostonda yorga erishish uchun mard bo`lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g`oya bo`rtib turadi:

Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,
Bor kuchimni bilagimga jiyaman,
Olmos olsam, qirmizi qon quyaman,
G`animlarning tanasini uyaman,
Qarchig`ayman, dushman boshin qiyaman,
Esim olsa bo`tadayin bo`zlayman,
Dushman ko`rsam, kesib bag`rin tuzlayman,
Aslim sherman, o`zim yo`lbars izlayman.

Xullas, «Alpomish» dostoni ming yillar qa`ridan bizga qadar etib kelgan asrlar nidosi, ajdodlarimiz orzu-armonlarining shonli qo`shig`idir. “Alpomish” dostoni ham, “Battle of Maldon” poemasi ham shunday hayotiy haqiqat bilan

yo`g`rilganki, u bizni bo`lingan elning boshiga tushajak kulfatlardan ogoh etadi, faqat elga qo`shilib esh topish saodatini shuurimizga singdiradi.

Ingliz xalq dostoni “Beovulf”da xalq qahramoni Beovulf o`z vatanini himoya qiladi. O`n ikki yil davom etgan hujumlar qirol Hrotgartning tinksini quritadi:

Hrothgar was broken;	to the Devil for help.
council after council proposed	The Danes forgot God.
what to do against the attacks.	No counselor, no warrior
They even went to heathen temples,	could destroy the evil.
worshipped idols, and called	They wept and seethed.

Bu holatdan bezgan xalq oldiga Beovulf chiqadi, u o`z xalqi ozodligi uchun Grendel bilan kurashib, uni engadi va xalq qahramoniga aylanadi.

Forward Grendel came,	to the devils he kept
stepping nearer. Then	for company. Never had he met
he reached for Beowulf.	a man such as this.
Beowulf grasped his arm	Beowulf then kept in mind
and sat up. The criminal	the speeches he had made
knew he had not met	in the evening and stood
in this middle-earth	upright, firmly grasping
another with such a grip.	Grendel's hand until
Grendel's spirit was afraid	the fingers broke.
and his heart eager	The monster strove to escape.
to get away, to flee	Beowulf stepped closer. That
to his hiding place, flee	famous monster suddenly wanted

to disappear into the fens.

Grendel felt sorry

He realized the power of those hands,

he had made a trip to Herot.

the wrathful grip he was in.

Asar qahramoni maxluqni hujum qilganiga pushaymon qildiradi va shu bilan xalq bir zulmkor maxluq tazyiqidan xalos bo`ladi.

“Malika ayyor” dostonida Avazxon Chambil yurtni devlardan ozod etish uchun kurashadi. Devlarning yovuzligi, odam zotini o`zidan past ko`rib, unga hujum qilishi Avazxonning o`z vatani himoyasiga chiqishga majbur etadi.

Avaz xayr deb o`rnidan turib, piyoda bo`lib, tepani aylanib borib qarasa, oldidan bir g`or chiqdi. G`orga boraverdi. Qarasa, darvoza ko`rindi. Darvozani ochib ichkari kirib qarasa, qirq dev araq-sharaq ichib mast bo`lib o`tiribdi. Chiqib turgan tutun sarmast bo`lib o`tirgan devlarning dami edi. Bu qirq devning kattasini Yaproqdev der edi. Avazjonni ko`rib, vaqti xush bo`lib kulib, "Xudodan har nima tilasak berar ekan, mast bo`lib edik, ustidan eydigan barra kabobni ham berdi", deb oldidagi xizmatkor devlarga qarab bir so`z dedi:

Yosh o`g`lonning bilmaganin bildiring,

Urmay, so`kmay, shodiyona kuldiring,

Barra go`shtin qanoraga ildiring,

Hayallatmay yosh o`g`lonni o`ldiring!¹

“Beovulf” dostonidagi kabi “Malika Ayyor” dostonida ham maxluqlar odamxo`r va insonlarga hujum qilib o`z nafslarini qondirib yurishadi. Maxluqlarning bu kabi tasviri doston tematikasining o`ziga xosligini ochib beradi. Har ikkala dostonida ham qahramonlarning maxluqqa munosabati bir xil – salbiy va ular har qanday holda ham uni engishga harakat qilishadi.

Avaz bu so`zni devdan eshitib, devlarga qarab bir so`z deb turibti:

¹ Малика Айёр. Ўзбек халқ достони. – Тошкент: G`ACH, 1988. – Б.78

Chambilning qo`chqori o`zim bo`laman,
Qilich ursam, darrov boshing olaman,
Otlanaber hayallamay, zo`r devlar,
Chambil eltib seni loyga solaman.
Ostimda o`ynaydi yuz alvon otim,
Maydonli kun tosha kelar g`ayratim,
Otlanaber hayallamay zo`r devlar,
Chambil elga eltsam bo`lar maqsadim.
Ul meni buyurgan, Go`ro`g`li polvon,
Go`ro`g`li o`g`liman, otim Avazjon,
Hayallama, oldima tush bu zamon,
Yo`qsa, qilay boshingga oxir zamon!¹

Devlarning insonlarga hujumi va ularning odamzod tomonidan mag`lub etilish, vatan va uning himoyasi uchun bel bog`lagan qahramon hech nima va hech kimdan qo`rqmay maxluqdar va devlarga qarshi chiqishi har ikkala dostonda tasvirlab berilgan. Bu bilan ikki millat va davlat oralig`idagi masofa ularda vatanparvarlik ruhi o`xshash, vatanga muhabbat bir xil bo`lishiga xalal bermasligini ko`ramiz.

Romanik dostonlar

Folklorshunoslikdagi ma`lumotlarga qaraganda, romanik dostonlar asosan, XVI asrlarda yuzaga kelgan, XVII-XIX asrlar esa xalq eposining intensiv rivojlanish bosqichini tashkil etadi.<sup>2</sup> Bu davrda xalq eposi real voqelikdan ko`ra ko`proq xalq idealini o`ziga xos badiiy shartlilik asosida, fantastik uslubda aks ettiruvchi xalq ertaklari, afsona va rivoyatlari syujeti hisobiga boyib bordi.

¹ Ўша асар. – Б.79

² Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти.//Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Т.: 1981. – Б. 51-55.

O`zbek xalq romanik dostonlari o`rta asrlar feodal jamiyati sharoitida yashagan ajdodlarimizning ozod va obod mamlakat, tinch farovon hayot, sadoqatli sevgi va barqaror do`stlik haqidagi yuksak orzu-umidlarini aks ettiruvchi yirik epik asarlar sifatida yuzaga keldi.

Romanik dostonlarning syujet sxemalari bir-biriga o`xshash bo`lib, odatda qahramon g`oyibona oshiq bo`lgan go`zalni izlab safarga otlanadi, ajoyib-g`aroyib voqealarni, mashaqqatli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g`ayritabiiy kuchlar bilan to`qnashadi, oxir oqibat barcha qiyinchiliklarni engib maqsadiga erishadi. Bu turdagi dostonlarda ulug`vor sevgi romantikasi bilan unga erishish yo`lidagi fantastik sarguzashtlar qahramonligi birlashib, chatishib ketgan.

Ingliz folkloridagi dostonlar tematikasi haqida ham xuddi shu narsani aytish mumkin. “Robin Gud” xalq eposida ham yorga muhabbat o`ziga xos tasvirlangan. Robin Lokslining Merilinga bo`lgan munosabati o`zbek xalq dostoni “Alpomish”da Alpomishning Barchinga bo`lgan muhabbati bilan baravar yuradi. Barchinning muhabbatini tasvirlashda uning o`z yoriga sadoqati Ultontozga qo`ygan shartlarida aniq ifodalangan, chunki Barchin Alpomishdan boshqa hech kim bu shartlarni bajara olmasligini biladi. Merilin ham xuddi shunday qator shartlar qo`yadi va bu shartlarda Robin Gud g`olib bo`ladi. Romanik dostonlarning tarkibi ancha murakkab bo`lib qahramonlik dostonlarida romanik unsurlar bo`lganidek, romanik dostonlarda qahramonlik yo`nalishlari, jangnomalarga xos xususiyatlar ham mavjud.

Tarixiy dostonlar

Tarixiy o`tmishda sodir bo`lgan voqealar, ayrim tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan dostonlar bo`lib, folklorshunos olimlarning qayd etishlariga, bunday dostonlar baxshilar repertuarida unchalik ko`p emas. Ushbu turdagi dostonlarda tarixiy haqiqat bilan afsona, fakt bilan badiiy to`qima chatishib ketadi

va ularning mavzusi, obrazlari, talqin qilingan g'oyalari konkret tarixiy sharoitdagi kurashlar bilan bog'lanadi.

Tarixiy dostonlar ba'zi xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi va shunga ko'ra ular bir necha ichki turlarga ajratilgan. Bu turlar bo'yicha tasnifni biz ingliz folklori qiyosida berishga urindik:

a) tarixiy-qahramonlik – o'zbek adabiyotida «Oysuluv» dostoni, ingliz adabiyotida “Beovulf”, “Meldon jangi”;

b) tarixiy-fantastik – o'zbek adabiyotida «Tulumbiy», «Shayboniyxon»; ingliz adabiyotida “Beovulf” dostoni;

v) tarixiy-konkret yoki yangi dostonlar – o'zbek adabiyotida «To'lg'onoy», «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo'zg'oloni», «Mardikor»; ingliz adabiyotida “Kessi Jons haqida qo'shiq”, “Meldon jangi” va boshqalar shular jumlasidandir.

Dostonlarning bu kabi qiyosi biz olib borayotgan tadqiqotning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Umuman olganda, dostonlarda ham boshqa folklor janrlaridagi kabi qator o'xshashliklar mavjud. Bu o'xshashliklar o'rganilishi barobarida ikki millat madaniyati, vataniga sodaqati, yoriga muhabbati, o'z vatani tinchligi va mustaqilligi yo'lida hech narsadan qaytmasligi bir xilda ochib berilgan.

X U L O S A

Magistrlik dissertastiyasini yozish jarayonida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Dunyo adabiyoti juda chuqur tarixga ega. Bu tarixning asosi sifatida folklor janrlari so`nggi yillarda keng o`rganilib, tadqiq etib kelinmoqda. Folklor asarlarining qiyosiy o`rganilishi millatlar va elatlar orasidagi adabiy muhit va jarayon o`xshashliklarini ochib berishga xizmat qiladi. Mana shu izlanishlar natijasi o`laroq qiyosiy adabiyotshunoslik sohasidagi ishlar kengaya boradi va adabiyotlar orasidagi insoniyat tarixida mavjud bo`lgan yaqinlik sezila boshlaydi. O`z ishimizda o`zbek va ingliz folkloridagi epik janrlarning o`xshashlik jihatlarini tahlil qilish barobarida turli millat va makonga mansub xalq og`zaki ijodi namunalarida sayyor hamda o`xshash syujetlar haqida ma'lumotlar berdik.

2. Shu bilan bir qatorda ishda ingliz va o`zbek xalq og`zaki ijodi asarlari orasidagi o`xshashlik prinstiplari tahlili keltirildiki, bu o`z vaqtida folklor asarlarining millat va elat tanlamasligini yana bir bora isbot qilib bera oldi. Tahlillarimiz nafaqat bu ikki millat adabiy merosi, balki jahon xalqlari folklori orasida ham o`xshashliklar mavjudligi, bu o`xshahshliklar esa insoniyat tarixiy taraqqiyot davomida qariyb bir xil vaziyatlardan o`tib kelganligini ko`rsatib beradi.

3. O`zbek folkloridagi epik (og`zaki nasriy) namunalarni ingliz tilidagi namunalar bilan solishtirdik va bu solishtirishda ulardagi o`xshashlik jihatlarini alohida ta'kidlab, o`z fikrlarimizni misollar bilan boyitib berdik. Qahramonlik, romanik, tarixiy dostonlar tuzilishi va ularning o`zaro bir-biriga yaqinlik jihatlari taqqoslandi. Taqqoslash jarayonida shu narsaga amin bo`ldikki, har bir millat vakili, har bir milliy qahramon dostonlarda vatanga muhabbatini chuqur ko`rsata olgan. Beovulf, Byortnot, Hrotgart, Alpomish, Qorajon va boshqa obrazlarning qahramonliklari shular jumlasidandir.

4. Ertaklar folklor janrlari orasida ko'p o'rganilgan va keng tadqiq etilgan janrlar sirasiga kiradi. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida o'xshash mavzular alohida bo'lim sifatida o'rganildi. Millatga xos jihatlardagi o'xshashliklar hududiy uzoq bo'lgan davlatlar orasida ham uchrab turishi, madaniyati tubdan farq qiladigan ikki millat folklorida ham bir xil jihatlari bo'lishi isbotlab berildi;

5. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida o'xshash mavzular – o'gay ona, o'gay qiz, dev, sehrli oyna, pari va boshqa obrazlarning qo'llanilishi taqqoslandi. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida bu kabi o'xshash mavzular xalqlar og'zaki ijodining bir-biriga hudud bo'yicha emas, balki ma'no-mohiyat bo'yicha uchrashi kuzatildi. Bunga ko'ra, ingliz va o'zbek xalq ertaklarida bu obrazlar bir xil funktsiya bajaradi va shu bilan o'xshashlikni ta'minlaydi.

6. Ikki millat folklor asarlarining etakchi janrlaridan biri bo'lmish dostonlarda qahramonlik va vatanparvarlik g'oyalarining estetik mohiyatini oydinlashtirdik. Bunda ingliz xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish "Beovulf". "Meldon jangi", "Robin Gud" dostonlaridagi qahramonlik g'oyalari "Alpomish", "Malika Ayyor" kabi o'zbek xalq dostonlari bilan taqqoslandi va ulardagi o'xshashliklar misollar asosida ochib berildi.

7. O'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodi namunalariining etakchi janrlaridan biri bo'lmish ertaklarda raqamlarlarning qo'llanilishi va ularning mohiyatini ochib berildi. Uch, etti raqamlarining o'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodida qo'llanilishi misollar asosida keng ochib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

- 1.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.- Б.174

II. Ilmiy – badiiy adabiyotlar:

2. Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. М.-Л.: Гослитиздат, 1960.- С.547.
3. Алпомиш. Халқ достони. Ёзиб олувчи М.Зарипов. Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Зариф, Т.Мирзаев – Т.: Шарқ, 1988. – Б.400
4. Allworth E. Uzbek Literary Politics. 1964. - P.180
5. Андреев Н. П. Указатель сказочных сюжетов по системе Аарне. Л., 1928.
6. Andrew Lang, The blue fairy book. 5th ed. – London: Longmans, 1991.
7. Арзамасева И.Н.,Николаева С.А. Детская литература. – М.:Академия, 2000.
8. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – Москва: Прогресс, 1979. – С. 320
9. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан. 1976. – Б.72
- 10.Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. Москва, 1947. –С. 518.
- 11.Zhirmunsky V.M. The Epic of “Alpamysh” and the Return of Odysseus.// Proceedings of the British Academy, 52, 1966, London. - P.286.
12. Жўраев М. Рақамларда яширинган олам. - Тошкент: Ўзбекистон, 1986. – Б.21

- 13.Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида сеҳрли рақамлар. - Т.: Фан, 1991. - Б.152.
- 14.Зумрад ва Қиммат. Ўзбек халқ эртақлари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1990 - Б.346.
- 15.Имомов К. Ўғай қиз типигаги туркум эртақларнинг айрим хусусиятларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 2001, №3 йил. – Б. 33.
- 16.Имомов К., Мирзаев.Т, Саримсоқов Б., Сафаров.О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.187.
17. Литвинский Б.А.Зеркало//Орудие труда и утварь из могильников западной Ферганы. Гл.VIII. – М: «Наука», 1978. – С.73-126
- 18.Малика Айёр. Тошкент: FACH, 1988
- 19.Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида фольклор анъаналари. Фольклоршуносликдан ўқув-услубий қўлланма.-Т.:”Истиқлол”, 2005.- Б.83.
- 20.Миф – фольклор – литература. Л.: Наука, 1978. – С.252.
- 21.Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадиияти: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф.- Т., 1995. –Б.41
- 22.Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград: ЛГУ. 1986. – С.430
- 23.Пропп В.Я. Фольклор и действительность. - М.: Наука, 1976. - С.325
24. Рахимбаева Д. Сравнительная типология узбекских народных пословиц. Дисс.кан.фил.наук. – Ташкент, 2002.
25. Сафаров О. Фольклор –бебаҳо хазина. Сайланма. Т. “Муҳаррир”2010. Б.360.
26. Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Darslik. Т., “Musiqqa”,2011.
27. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг жанрлар состави. //Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик, 1-том. Т.: «Фан», 1988

28. Cinderella. Disney Press, 2007
29. Фрезер Д.Д. Фольклор в Ветхом завете. 2-е изд. М.: Политиздат, 1985. – 511с.
30. Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадиий талқини: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Т., 1996. Б.24
31. Ўзбек халк эртаклари. – Тошкент, 2007.
32. Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи.- Тошкент: Ўқитувчи, 1979
33. Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси). - Фил.фан.ном.дисс. – Тошкент, 1999.
34. Қошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк, биринчи том, Т.: ЎзФА нашриёти, 1960

III. Internet saytlari:

35. www.art.com
36. www.folklore.com
37. www.librus.ru
38. www.literature.ru
39. www.natlib.com
40. www.ozon.ru
41. www.yahoo.com
42. <http://nota.triwe.net>.